

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT ISHLARI
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI
“XALQ IJODIYOTI” FAKULTETI “IJTIMOIY MADANIY FAOLIYAT”
TA‘LIM YO‘NALISHI**

**“MADANIYAT VA SAN‘AT MUASSASALARINI TASHKIL ETISH VA
BOSHQARISH” KAFEDRASI**

“SHAXS KAMOLOTIDA BO‘SH VAQT OMILI”

Mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“Bitiruv malakaviy ish kafedrada
dastlabki himoyadan o‘tdi”

“Madaniyat va san‘at muassasalarini
tashkil etish va boshqarish”
kafedrasining _____ - sonli yig‘ilish
bayonnomasi

“_____” _____ 2014 yil

Kafedra mudiri

Katta o‘qituvchi: Shodiev X.X

Bajardi: “Ijtimoiy madaniy faoliyat” ta‘lim
yo‘nalishi bitiruvchisi

Ibragimov Oybek

Ilmiy rahbar:

s.f.d.professor., A.A. Umarov

Toshkent – 2014

MUNDARIJA

Kirish	3
---------------------	----------

I. BOB. SHAXS KAMOLOTINING YUKSALISHIDA BO‘SH VAQTNING O‘RNIDAN UNUMLI FOYDALANISH YO‘LLARI

1.1. Shaxs kamolotida madaniy tadbirlarning o‘rni va ularning taraqqiyoti.....	8
1.2. Madaniy-ma’rifiy ishlar shaxsning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish vositasi sifatida	22

II. BOB. SHAXS KAMOLOTIDA BO‘SH VAQT OMILINING O‘ZIGA XOSLIGI

2.1. Shaxs kamolotga erishishidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari	37
2.2. Shaxs kamolotida bo‘sh vaqt omili va madaniy-ma’rifiy muassasalar faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari	49
Xulosa	58
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	61
Ilovalar	63

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Respublikamizdagi mustaqil huquqiy, demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurish yo‘lidagi ulkan ishlar inson mohiyatini yangidan kashf qilishga, uni o‘zligini anglashga imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga va ma’naviy intellektual, aqliy-amaliy rivojlanishi uchun yangi shart-sharoitlar yaratib beradi.

Hammamizga yaxshi, ma'lumki, yoshlik intilishlari chegara bilmaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ezgu orzu-niyatlar bilan yonib yashayotgan yigit-qizlarga ular ko‘zlayotgan yuksak ufqlar, buyuk maqsadlar, avvalo, insonning o‘zi uchun yurti va xalqi uchun foydali ekanligini ochib berish mumkin¹.

Bu o‘z navbatida insoniyat yaratgan an’naviy ilmiy boyliklarga, insonning o‘ziga yangicha munosabat yondoshuvini yuzaga keltirdi. Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek “Fuqarolar endi ijtimoiy iqtisodiy jarayonlarning ishtirokchisi bajaruvchisi emas balki bunyodkori va tashkilotchisidir”².

Yosh avlodga yangicha, bozor iqtisodiyoti asosidagi hayotga moslashuvga, ularning yangicha munosabatlariga o‘rganishlari uchun xalqimizning o‘tmishimizda mavjud bo‘lgan tarixiy tajribalardan foydalanmasak imkoniyatlarni boy berish hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlarning barchasida shaxs kamolotida va yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishda madaniy-ma’rifiy muassasalar katta rol o‘ynaydi.

Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishda madaniy-ma’rifiy muassasalar ayniqsa, madaniyat va aholi dam olish markazlari, mahalla guzarlari, sport inshootlari, kutubxonalarning imkoniyati katta. Demak, yoshlar ma’naviy barqarorligini yo‘lga solish, ularning shaxs sifatida yetuklik kasb yetishi kelajakda ulkan vazifalarni amalga oshirishida madaniy-ma’rifiy muassasa rahbarlari, xodimlari va murabbiylarning roli beqiyosdir. Chunki yoshlarning bo‘sh vaqtida

¹ Karimov I.A. Istiqlol va ma’naviyat-T: O‘zbekiston 1995. 66-67 betlar.

² Karimov I.A.O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va tarqiyot kafolatlari.-T.: O‘zbekiston, 1997. 112-130 betlar.

ixtiyoriy tarzda, o'z qiziqishlari, iste'dodi va qobiliyatlariga yarasha ijtimoiy foydali faoliyat bilan shug'ullanishlarini tashkil etish va uni uyushtirish madaniy-ma'rifiy xodimlarning murabbiylik mahorati va bilimga bog'liqligidir.

Ijtimoiy tarbiya maskanlarining orasida doim dam olishni tashkil etishning alohida bir usuli sifatida paydo bo'lgan madaniyat va aholi dam olish markazlarining o'rni bo'lakchadir. Jamiyat a'zolarining qiziqishlari va ehtiyojlarini ixtiyoriy asosda, bo'sh vaqt sifatida qanoatlantirish usuli bilan shaxsan tarbiyalash madaniy-ma'rifiy muassasalarning o'z oldiga qo'ygan vazifasidir.

O'zbekiston madaniy-ma'rifiy muassasalari keyingi davrda bolalar ijodiga alohida e'tibor bermoqda. Respublika madaniyat muassasalarida 6 mingga yaqin bolalar jamoalari ishlab, ularda 200 mingga yaqin yosh avlod vakillari qatnashishmoqda.

Hozirgi paytda yoshlarning bo'sh vaqtini samarali, ijtimoiy foydali qilib uyushtirish maxsus tadqiqotlarga molik muammolardan biri bo'lib, u olimlarimiz va mutaxassislarimiz tomonidan jiddiy e'tiborni kutib turibdi. Bu boradagi madaniy-ma'rifiy muassasalar tajribasi maxsus o'rganishni, umumlashtirishni, tahlil va targ'ib qilishni talab qilmoqda.

Ma'lumki, madaniyat muassasalari o'z faoliyatlarini yoshlarning bo'sh vaqtida olib boradi. U yoshlarni asosiy ishi, o'qishdan tashqari har xil mazmun va shakldagi «ikkinchi» faoliyat bilan shug'ullanishlariga imkoniyat yaratadi. Bu kungilli faoliyat yoshlarning hordiq chiqarishga, bilimni, dunyoqarashini o'stirishga, ijodkorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Ma'lumki yurtimiz aholisining 65 foizini yoshlar tashkil etadi. Demografik jihatdan olib qaraydigan bo'lsak O'zbekiston Respublikasi yoshlar mamlakati deyishga ilmiy asoslar bor. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda "Har qaysi davlat yoki millat o'z farzandlari qiyofasida unib o'sib kelayotgan yosh avlod timsolida, shu xalqqa xos eng go'zal fazilatlarni namoyon etadigan, uning ezgu-orzu niyatlarini amalga oshirishda mardlik, fidoiylilik ko'rsatishga qodir bo'lgan o'z

tayanchi va suyanchini ko‘rishi tabiiydir”¹.

Bizning bugungidek dorilomon kunlarda istiqlol bergan barcha imkoniyatlar zahirida kamolotga yetishayotgan yoshlarimizning ijtimoiy hayoti qaysi orzu intilishlar tomon yo‘nalganligi va uni maqsadli amalga oshirishda turli vositalar jumladan, madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatini ham o‘rni beqiyosdir.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi: shaxs kamolotga erishishida bo‘sh vaqt omili va madaniyat muassasalarining o‘rni va roli aynan shu mavzuda bugungi kungacha ilmiy muammo sifatida o‘rganilmagan bo‘lsada bu borada ko‘plab ma’ruzalar ilmiy to‘plam va turli gazita va jo‘rnallarda ilmiy maqolalar chop etilganligining guvohi bo‘ldik. Hususan A.Begmatova va R.Rustamovalarning “Milliy g‘oya targ‘iboti va madaniy-ma'rifiy tadbirlar” nomli to‘plamida Madaniy-ma'rifi tadbirlar orqali yoshlarni ma'naviy axloqiy jihatdan tarbiyalashning usul va vositalari. Bayramlar-o‘quvchi va talaba yoshlarni tarbiyalashning muhim vositasi. Kabi mavzularida yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishlari qisman yoritib berilgan. Bu sohani chuqur, ipidan ignasigacha o‘rganishga bel bog‘lagan tadqiqotchilarimiz yo‘q emas albatta.

Tadqiqotning maqsadi: shaxs kamolotida asosiy rol o‘ynaydigan vositalardan biri, madaniy tadbirlarni tashkil etishdan bosh maqsad yoshlarning bo‘sh vaqtlarini samarali o‘tkazish, xalqimizning turmush tarzini yaxshilash va ularga erkinlikning qadriga yetish, jamiyatning faol a'zosi bo‘lishga undashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- shaxs kamolotida bo‘sh vaqt omilining muhimlik darajasini aniqlash va o‘rganish:

- yoshlar muammolarini, kamchilik va nuqsonlarini o‘rganib chiqib kerakli tavsiyalar bilan muammolarini yechish yo‘llarini ko‘rsatib berish;

- qaysi doirada bo‘lmasin, shaxsiy fikr bildirish olishlarida o‘ziga xos zamin

¹ Suyunov A. “Ommaviy madaniyat” ko‘lankasi yoxud ma’naviy taxdidlar haqida.-T.: “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” 2010 yil.

hozirlash;

- shaxs kamolotining zukkolik xususiyatlarini shakllantirishga xizmat qilish;
- yoshlarning bo'sh vaqtlarini kungilli o'tkazish; yoshlarning maroqli dam olishlari uchun qiziqarli dasturlar bilan chiqishlar qilib, ularning bu sohadagi iste'dodlarini ustirish;

Tadqiqotning ob'yekti: shaxs kamolotini yuksaltirishga xizmat qiladigan va yoshlarning bo'sh vaqtlari uchun samarali ishlarni olib boradigan tarbiya muassasalari faoliyatlarini keng qamrab oladi.

Tadqiqotning predmeti: shaxs kamoloti uchun madaniy-ma'rifiy tadbirlar uyishtirish, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish va ularning faoliyatini boshqarish xususiyatlari va shakllari belgilangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Mustaqillik sharoitida barkamol shaxsni tarbiyalashga bo'layotgan e'tibor bois shaxs rivojlanishini boshqarish aholiga namunali xizmat ko'rsatishni takomillashtirishga erishish. Shaxs kamolotida bo'sh vaqt omilini keng miqyosda o'rgandik va undagi muammolarning yechimini topishga doir chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning metodlari:

- Kuzatuv,
- savol-javob,
- anketa va suhbat usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning metodologik asosi:

Ushbu mavzuni tahlil qilishda va uni yoritishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A.Karimovning asarlari, ta'lim muammolari, xalq ta'limi, kadrlar tayyorlash milliy dasturi, internet saytlari va boshqalarning ilmiy ishlaridan va metodik jurnal adabiyotlaridan Respublikamizning ushbu sohasidagi mutaxassislari va ilmiy tadqiqotchilarning tahliliy ma'lumotlari ishda o'z aksini topgan.

Tadqiqotning ilmiy nazariy ahamiyati. Ushbu mavzu O'zbekiston hududida yetarli darajada ilmiy-nazariy o'rganilmagan. Yoshlarning yutuk va barkamol shaxs

etib tarbiyalash haqida Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning asarlarida hamda Sharq mufakkirlari asarlarida ilgari surilgan konseptual qarashlar xususan, shaxs kamolotini yuksaltirish borasidagi nazariyasi ilmiy taraqqiyotimizda nazariy metodologik asos sifatida olindi. Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishda tirgak bo'ladigan ilmiy to'plamlar, madaniy-ma'rifiy ishlar sohasiga doir ishlarini olib borish masalasiga oid bo'lgan hujjatlar tadqiqotning nazariy asosi va dasturiy amali hisoblanadi.

Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati: Tadqiqotning nazariy ahamiyati bevosita uning ilmiy yangiligidan kelib chiqadi. Tadqiqot dasturini yaratish statistik tahlil o'smirlar ijtimoiylashuvida madaniy faoliyatni xususiyatlari o'rganilishi fanga nazariy hissa bo'lib qo'shildi. Madaniy tadbirlarning muhim va uncha ahamiyatga ega bo'lmagan mexanizmlarni, aniqlash bu jarayonga rejali ta'sir o'tkazish imkonini beradi.

BMIning qisqacha tuzilishi. Kirish, 2 bob, (4 ta bo'lim), xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan tarkib topgan.

I. BOB. SHAXS KAMOLOTINING YUKSALISHIDA BO‘SH VAQTNING O‘RNIDAN UNUMLI FOYDALANISH YO‘LLARI

1.1. Shaxs kamolotida madaniy tadbirlarning o‘rni va ularning taraqqiyoti

Istiqlol iqtisodiy-ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy yuksalish yo'lida har tomonlama mukammal o'ylangan islohotlarni amalga oshirishda keng imkoniyatlar berdi. Bu islohotlar ichida inson kamoloti va uning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasi alohida o'rin tutadi. San'at insonlarni go'zalikka chorlovchi, birlashtiruvchi vositadir. San'at shunday bir ijtimoiylikki har qanday davrda ham uning bosh maqsadi inson tarbiyasidir. “Bugun, Vatanimiz, yurtimiz XXI asrga qadam qo'yib, o'zining buyuk kelajagi sari intilayotgan, bu yo'ldagi barcha harakatlarmiz iymon-e'tiqod tuyg'usi bilan yo'g'rilib, kuchayib borayotgan bir paytda, o'z tarixiy ildizlarimizni, shu jumladan, san'atimiz, milliy teatrimiz tarixini chuqur anglash, undan saboq olish haqida gapirishimiz har jihatdan o'rinli bo'ladi, deb o'ylayman”, deb ta'kidlaydi Prezidentimiz I.A.Karimov. Shu sababdan ham hozirgi kunda san'at va madaniyatga katta e'tibor berilmoqda. Prezidentimiz tomonidan 1998-yil 26-martda “O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida”ga Farmoni, 1998-yil 22-mayda “O'zbekteatr ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi Farmoni, 2001- yil 21- sentabrda “Hamza nomidagi O'zbek Davlat Akademik drama teatriga “Milliy teatr” maqomini berish to'g'risida”¹gi Farmonlarining qabul qilinishi so'zimizning isbotidir.

Darhaqiqat, san'at koshonalari, san'atni o'rgatuvchi muassasalar boshqa tashkilot yoki muassasalardan o'zining ko'p jihatlari bilan ajralib turadi. Chunki san'at sohasi bilan shug'ullanuvchi muassasalarda “sahna” deb atalmish muqaddas bir pirxona borki, unda faoliyatning asosini tarbiya, insonlarga yaxshilik, ezgulik ulashish, davr

¹ O'zbekiston Respublikasi madaniyat va sport ishlari vazirligi “Madaniyat sohasiga oid me'yoriy hujjatlar to'plami” – T.: “MEDIANASHR” 2010 yil. 64-66, betlar.

mafkurasiga xizmat qilish, Vatanni sevish, ardoqlash kabi buyuk niyatlarga intilish tashkil etadi. Yurtboshimiz I.A.Karimovning “Sahna san'ati insonlarga nafaqat zavq-shavq baxsh etadi, ayni vaqtda milliy g'urur, milliy iftixor manbai, qudratli tarbiya vositasi ham bo'la olishi -bu isbot talab qilmaydigan haqiqatdir”, deb aytgan so'zlari aynan sahna san'atining jamiyatimiz taraqqiyotidagi ahamiyatining buyukligi va bunga davlatimiz tomonidan katta e'tibor berishi fikrimizning dalilidir.

Sahna shunday bir minbarki, undan turib ichingdagi darding, quvonchu izhorlaring va boshqa his-tuyg'ularingni bemalol aytishing mumkin. Teatr san'ati, musiqa, raqs va boshqa san'at turlari orqali ham insonlarni tarbiyalash, ularga estetik zavq bag'ishlash, ezgulikka undash kabi maqsadlar qo'yilganki, uni amalga oshirish uchun esa badiiy jamoa rahbari turli ifodaviy va ta'sirchan vositalardan foydalanishiga to'g'ri keladi. Demak, ifodaviy va ta'sirchan vositalar sahna asarining yuzaga chiqishidagi barcha faoliyatlarda qo'llanishi va kuzatilishi mumkin. Ayniqsa, bu ifodani ommaviy bayram va tomoshalarda yaqqol ko'rish mumkin. Keyingi yillarda, aniqrog'i, yurtimiz mustaqillikka erishgach, bayramlarni tashkil etishga bo'lgan e'tiborning kuchayganligini sezishimiz mumkin.

Ommaviy bayramlar madaniy tadbirlarning oliy ko'rinishi bo'lib, insoniyat tarixining rivojlanishi bilan takomillashib kelgan. Shuning uchun ham mazkur darsning asosiy qismi bayramlar mavzusiga qaratilgan.

Insoniyat yaralibdiki, uning turmush tarzida bayramlar alohida ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda. Insoniyat hayotini bayramsiz, an'ana, marosim, urf-odatlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bayramlar jamiyatning ma'naviy go'zalligini, xalqning yashash tarzi, turmush sharoitini dunyoga ko'z-ko'z qiluvchi asosiy vositadir. Biror davlatda nishonlanayotgan milliy bayramlar yoki jahon miqyosidagi tadbirlarni kuzatar ekanmiz, o'sha davlatning milliyligi, o'ziga xos urf-odatlarini o'rganamiz. Demakki, bayram hayotning eng nafis va nafosatli xislatlarini namoyish etuvchi ko'zgudir. Bayram jamiyatning kechasi, buguni, ertani haqida dalolat beruvchi jonli manbadir.

Sharqning buyuk olimi Mahmud Qoshg'ariy "Bayram-xalqning shodlik va xursandchilik kunidir"¹, degan edi. Biror-bir muhim ijtimoiy voqea, sanani ko'pchilik bo'lib, ko'tarinki ruhda, xursandchilik bilan nishonlash bayram deb tushiniladi.

Abu Rayhon Beruniy bayramlarni hayotdagi "eng muhim kunlar" deb ularni quyidagi turlarga bo'ladi:

1. dunyoviy bayramlar
2. diniy bayramlar

"Kimki Navro'z kuni bayram qilib quvonsa, keyingi Navro'zgacha xurram bo'ladi va farog'atda yashaydi", deb ta'kidlaydi Umar Xayyom.

XX asrda bayramlar bilan ko'pgina olimlar shug'ullanishgan. Bayramlar mohiyatini to'g'ri anglash, tarixi va hozirgi kundagi hayotini tushunishda ayniqsa M.M.Baxtin tadqiqotlari muhim. "Bayram hamma vaqt dunyoni teran idrok etish mazmuniga ega bo'lib kelgan. Ijtimoiy mehnat jarayonini tashkil etish va mukammallashtirishdagi "mashqlar", "mehnat o'yinlari", mehnatdagi dam olish yoki nafasni rostlash hech qachon o'z holicha bayram bo'la olmaydi. Ularning bayram bo'lishi uchun borliqning boshqa sohasi, ma'naviy-mafkuraviy sohasidan nimadir qo'shilishi shart. Ular moddiy dunyo va zarur shart-sharoitlaridan emas, inson hayotining buyuk maqsadlari dunyosidan, ya'ni ideallar dunyosidan da'vat va quvvat oladi"².

Bayramlar ham jamiyatdagi o'zgarishlarga qarab, ma'lum darajada o'zgarib boradi. Yangi bayramlar paydo bo'ladi. Lekin bu bilan bayram shodiyonasi, insonlar xursandchiligi o'zgarmaydi. Inson bayram kunlari o'z hayotidagi tashvishlarni unitib, yangi liboslar kiyishga, o'yin-kulgi bilan g'uborini yozishga harakat qiladi.

Shu soha olimlari XX asrdagi bayramlarga baho berar ekan, M.M.Baxtin konsepsiyasiga tayangan holda ish ko'radilar. "Bayram - bu ma'lum vaqtdagi ideal hayotdir" - deb ta'kidlaydi I.I.Mazayev.

¹ www.ziyounet.uz O'zbekiston ta'lim portali.

² U.Qoraboev "O'bek xalqi bayramlari" -T.: "Sharq" 2002 y., -B. 11.

“Bayram - har bir fuqaro va butun jamiyat hayotini aks ettiruvchi o‘ziga xos ijtimoiy hodisadir” - deb ta’rif bergan D.M.Genkin bu fikrlarini yanada oydinlashtirib shunday deb yozadi, “Bayram - bu voqelik bilan san’atni uyg‘unlashtiruvchi, u yoki bu real hayotiy voqeani badiiy bezab ko‘rsatuvchi o‘ziga xos antiqa hodisadir”.

“Bayram dunyo madaniyatida yig‘ilgan eng qimmatli boyliklarni o‘zida uyg‘unlashtiradi” - deb fikr yuritadi A.I.Arnoldov¹.

Bayramshunos olim filologiya fanlari doktori, professor U.Qoraboyev “O‘zbekiston bayramlari” nomli kitobida va mazkur kitobning qayta ishlanmasi sifatida yaratgan “O‘zbek xalqi bayramlari” kitobida o‘zbek bayramlarining xususiyatlari haqida to‘laqonli ta’rif bergan. O‘zbek bayramlari mohiyatan boshqa xalqlar bayramlaridan farq qilmaydi, ular ham orzu, mehnat, kurash ifodasi, an’analar, go‘zallik ko‘zgusi, tinchlik, hamjihatlik, tenglik, hayotning davomi, muhim qismidir.

U.Qoraboyev xalq bayramlari mohiyatini belgilovchi bayramlarning xususiyatlaridan kelib chiqib, bayramning uchta asosiy xususiyatini belgilaydi:

1. Bayram holati (bayram kayfiyatining) paydo bo‘lishi, bayramga bo‘lgan ehtiyojning tug‘ilishi;
2. Bayramona holat, kayfiyatning paydo bo‘lishi - bu hali bayram degani emas. Shu kayfiyatni, shu holatni, intilishni ro‘yobga chiqarish uchun bayramni tashkil etish kerak. Ommaning bayram ishtirokchisiga aylanishidir.
3. Bayram bu - teatrlashtirilgan namoyishlar, tomoshalar, konsertlar, ko‘rik-tanlovlar bellashuvlar, ya’ni rang-barang ommaviy tadbirlar birligidir.

O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasida bayramga quyidagicha ta’rif berilgan: - “Bayram (turkiycha - katta yig‘in, to‘y) - keng nishonlanadigan tantanalik kun. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot davomida kelib chiqishi, mazmuni, ijtimoiy hayotda qaror topishiga ko‘ra an’anaviy, diniy, milliy va boshqa bayramlar vujudga keldi. Avloddan-avlodga meros tariqasida o‘tib keladigan bayramlar an’anaviy bayramlar deyiladi. Masalan: Navro‘z bayrami. An’anaviy bayramlar biror xalq yoki millatning

¹ U.Qoraboev “O‘zbek xalqi bayramlari” -T.: “Sharq” 2002 y., -B. 11.

ayni vaqtdagi ijtimoiy turmushi, hayot kechirish tarzi bilan bevosita bog'liq bo'lmaydi. Diniy bayramlarda har bir monetistik dinning aqidalarida belgilab qo'yilgan marosimlar nishonlanadi".

Tadqiqotchi E.V.Sokolov bayramlarni barcha dam olish shakllari orasida eng afzali deb ko'rsatadi. Chunki bayram tadbirlarida dam olishning eng samarali shakllari mujassamlashadi.

Tarbiya tizimida bayram o'ziga xos muhim va yirik tadbir sanaladi. Xalqning eng yaxshi an'analari, odatlari, ahloqiy qoidalarini o'zida mujassamlashtirishi, saqlashi va rivojlantirishi bilan yoshlar tarbiyasida ham bayramning ahamiyati katta.

Tarix shuni isbotlaydiki, bayramlar ma'nosi, g'oyasi xalqning o'yi, dardi, orzu-umidlari asosida paydo bo'lgan va o'zgarib, rivojlanib borgan. Bayramlarning yana bir xususiyati ularning muayyan vaqt, maxsus sana bilan bog'liqligidir. Kishilarda bayram kayfiyati avvaldan belgilangan vaqt, sana, kun kelganida paydo bo'ladi. Masalan, qishning sovuq kunlaridan so'ng ob-havoning isishi, tevarak-atrofning ko'm-ko'k libosga o'ranishi, dov-daraxtlarning gullashi - bahor kelishi barcha kishilarga olam-olam quvonch shodlik olib keladi. Albatta, bu o'zgarishdan har kim o'zicha zavqlanadi. Ammo tabiat go'zalligi va bahor shodiyonasi hamma uchun umumiy bo'lganligi sababli odamlarda uni birgalikda nishonlash kayfiyati ham tug'iladi. Ana shu ehtiyojni qondirish uchun maxsus vaqt belgilanadi. Bu sanalarni belgilashda ming yilliklar tajribasidan kelib chiqiladi. Masalan, quyoshning hamal burjiga kirish vaqti "Navro'z" bayrami o'tkaziladigan vaqt sifatida belgilangan.

Professor U.Qoraboyev "O'zbek xalqi bayramlari" kitobida quyidagi fikrni bildirgan - "Bayramning o'ziga xos xususiyati unda keng ommaning ishtirok etishidir. Bayram avvalo ko'pchilik uchun uyushtiriladi va u bevosita odamlarning ishtirokida o'tadi. Teatrlar, konsert zallari, televideniye ko'rsatuvlari, radio eshittirishlarida omma faqat tomoshabin, tinglovchi rolini bajarsa, bayramlarda odamlar faol ishtirokchi sifatida qatnashadi. Bayramlarda hamma o'z qobiliyatini namoyish qilishi mumkin. Kishilar bayram tadbirlarini ishtirokchi sifatida kuzatadi va bo'lgan

voqelarga o'z munosabatini bildiradi¹. Bayramlarning o'ziga xos yana bir xususiyati ularning bir necha (kompleks) tadbirlar sintezidan tashkil topishidir. Har bir bayram ko'plab tadbirlar asosida uyushtiriladi. Bayramning tashkil qilinishi - uning mavzusi, g'oya, yo'nalishi maxsus shakl, tadbir va marosimlar orqali namoyon etishdir. Odatda har bir ommaviy (ayniqsa, ochiq joylardagi) bayramning ochilish marosim-tadbiri bo'ladi. Undan so'ng, bir joyda - bayram ko'rgazmalari, ko'rik-tanlovlari; ikkinchi joyda - dor o'yini, polvonlar chiqishlari; uchinchi joyda - askiya va qiziqchilar chiqishlari, qo'g'irchoq teatri tomoshalari; to'rtinchi joyda - badiiy havoskorlik jamoalari, folklor etnografik ansambllari konsertlari; beshinchi joyda - sport musobaqalari kabilar tashkil qilinadi. An'analar, marosimlar, teatrlashtirilgan konsert va tomoshalar, karnavallar, namoyishlar, xalq o'yinlari bayramlarning asosiy tarkibiy qismi sanaladi. Ommaviy bayramlar shu kabi tadbirlar asosida o'tkaziladi".

Bayram-o'ziga xos, ko'p tomonli ijtimoiy hodisa bo'lib, har bir insonni, jamiyatning hayotini namoyon etadi. Uning barcha dunyo xalqlari orasida tarqalganligidan, bayramlarning inson va jamiyat uchun hech narsaga almashtirib bo'lmaydigan bebaho boylik ekanligiga amin bo'lamiz. «Bayram jamiyat hayotining organik bo'lagi bo'lib, shu bilan bir qatorda, har bir insonning hayoti va faoliyatini tenglashtirib, omma erkin hayot faoliyatining markaziga aylanib, alohida olingan shaxsning emotsional tarangligini oluvchi razryad funksiyasini bajaradi».

«Bayram» - turkcha so'zdan olingan bo'lib, to'y, marosim, xursandchilik degan ma'nolarni bildiradi. Bayram so'zining turli talqinlari bor. Falsafiy ensiklopediyada berilgan «Bayram» - insonlar xursandchiligining yig'indisi², - degan talqin eng to'g'risi deb hisoblanadi. Bayram ijtimoiy mahalliy hayotning eng muhim qismlaridan bo'lib, shodiyona, xursandchilikni vujudga keltiradigan voqealarni nishonlaydi.

¹ U.Qoraboev "O'bek xalqi bayramlari" -T.: "Sharq" 2002 y., -B. 15.

² O'sha joyda.

O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqining ham eng qadimgi davrlardan shakllana boshlagan asrlar bo'yi avloddan-avlodga o'tib kamol topib bebaho merosiga aylangan bayramlari ko'p. Bu bayramlar eng qadimiy davrlarda xalq ommasi ehtiyoji bilan shakllana borgan, ijtimoiy zarurat asosida rivoj topgan va boshqa xalqlar tajribasi bilan boyib kelgan.

O'zbek xalqi bayramlarini davrlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir. Masalan:

- Ibtidoiy davrda vujudga kelgan bayram shakllari (bunga ovchilik o'yinlari, zoofagik (ya'ni, totem hisoblangan ayiq, yovvoyi echki, sigir, bu esa ot kabilarga sig'inish) bayramlar, mehnat o'yinlari, orgaist bayramlari va boshqa bayramlarni kiritish mumkin).

- O'rta Osiyo xalqlarining qadimiy (islomgacha bo'lgan) bayramlar;
- O'rta asrlardan inqilobgacha bo'lgan davrdagi o'zbek bayramlari;
- Sho'rolar davridagi bayramlar;
- Mustaqillik davridagi bayramlar.

Oxirgi yillar ommaviy bayramlarning janr muammolari dolzarb bo'lib turibti. O'tkazilayotgan bayramlarning janrini aniqlashda ba'zi mutaxassislar qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Ba'zan ommaviy teatrlashtirilgan bayramlarning janri yo'q, degan kulgili so'zlarning guvohi bo'lamiz. Lekin bunday fikrlar noto'g'ri. Teatr san'atidagi kabi, ommaviy bayramlar ham o'z janr turlariga ega. Bu muammoni rejissyor, olimlar D.M.Genkin, I.G.Sharoyev, I.M.Tumanov, A.D.Silin, N.Vershkovskiy, U.Qoraboyevlar o'z izlanishlarida isbotlab berganlar. Ularning tajribalaridan kelib chiqib, ommaviy bayramlarni quyidagi janrlarga bo'lish mumkin:

- teatrlashtirilgan konsert;
- konsert-miting;
- ommaviy sayl;
- teatrlashtirilgan namoyish;
- ko'chalarda, maydonlarda, stadion va bog'larda o'tkaziladigan bayram harakati;

- milliy san'at dekadallari;
- san'at festivallari;
- qo'shiq bayramlari;
- raqs bayramlari;
- karnavallar;
- suvda o'tkaziladigan bayramlar;
- ochiq havoda namoyish etiladigan teatr-spektakllar;
- ko'cha bayramlari;
- sport bayramlari;
- teatrlashtirilgan bolalar bayramlari¹.

Bayramning paydo bo'lishi, uning rivojlanish bosqichlarini "Eortologiya" fani o'rganadi. «Eortologiya» - grekcha so'zdan olingan bo'lib - bayram haqidagi fandır. Mazkur fanning yuzaga kelishida va uni ilmiy-nazariy jihatdan o'rganishda I.Snegiryov, I.Saxarov, F.Buslayev, A.Afanasev, Ye.Anichkov K.Mardjanov, D.M.Genkin, I.M.Tumanov kabi mutaxassislarining xizmatlari katta bo'lgan. Shuningdek Mahmud Qoshg'ariy, Abu Rayhon Beruniy, Firdavsiy, Farobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Bobur, Ogahiy, Behbudiy, Fitrat kabi Sharqning mutafakkir olimu-fuzalolari ham bayramlarning ijtimoiy hayotdagi o'rni va roli haqida turli nuqtai nazar bilan yondoshib o'z fikr va mulohazalarini bayon etganlar.

Mazkur sohadagi muammo va kamchiliklarni ijobiy hal etish, xalqaro konfrensiyalar o'tkazish, dunyo xalqlari bayramlarining xilma-xilligini o'rganishi, bayramlarning ijtimoiy hodisa sifatida, hayotimizdagi o'rni va ahamiyatini o'rganish mazkur fan mutaxassislarining asosiy vazifalaridan biridir.

Ommaviy bayramlarning ommabopligi shundaki, birinchi navbatda, u amaliy namoyish etilganda, o'zining chuqur ijtimoiy - psixologik va tarbiyaviy ildizga ega ekanligi namoyon bo'lib, sahnalashtirish jarayonida tasodifiy hol va elementlarga yo'l qo'yilmaydi.

¹ U.Qoraboev "O'zbek xalqi bayramlari" -T.: "Sharq" 2002 y., 53- B.

Shuni aytib o'tish joizki, ommaviy bayramlar tarixi, ayniqsa O'zbekiston bayramlari tarixining kelib chiqish genezisi, uning turlari to'liq o'rganilmagan. Tarix shunday fanki, qanchalik chuqur o'rgansak, shunchalik kam bilishimizga ishonchimiz komil bo'ladi. Ayniqsa ommaviy bayramlar tarixi juda ham kam o'rganilgan.

Bu sohada birinchilardan bo'lib falsafa fanlar doktori, professor U.X.Qoraboyev ilmiy izlanishlarida O'zbekiston bayramlari fani rivojiga o'zining katta hissasini qo'shdi. Uning «O'zbekiston bayramlari», «O'zbek xalqi bayramlari» kitoblarida bu mavzuga chuqur, ilmiy yondashilib, bayramlarning kelib chiqish tarixi to'liq yoritishga harakat qilingan.

Yaqin davrlargacha bayramlar tarixi umumiy san'at tarixi sifatida (adabiyot va teatr) o'rganilib kelingan edi. Lekin, ommaviy bayram va tomoshalar har bir tarixiy davrda tarbiya va ma'rifatning asosiy o'giti sifatida yuqori o'rinlardan birini egallab kelgan.

Ommaviy bayramlar tarixiga qisqacha nazar solsak, o'zining g'oyaviy jihatdan kompozitsion butun bo'lgan qadimgi Yunoniston va Rim davridagi bayramlardan boshlasak bo'ladi. Albatta, qadimgi Yunoniston va Rim bayramlarigacha ham insoniyat paydo bo'lganidan keyingi davrda bayramlar vujudga kelib, shakllangan. Lekin bu bayramlar o'zining ma'naviy, intellektual darajasi, ifodaviy shakllari jihatidan primitiv xususiyatga ega bo'lib, kompozitsion yaxlitlikka ega bo'lmagan.

Qadimgi Yunoniston va Rim davrida tashkil qilinib, o'tkazilgan xalq bayramlarida ommaviy bayramlar dramaturgiyasi va rejissurasining elementlari vujudga kelgan.

Qadimgi yunonlarda bayram o'ziga xos mustaqil bo'sh vaqt va dam olishning bir shakli bo'lib, hatto doimiy jihatdan ham uzviy, faol mashg'ulot turiga aylangan. Bizga ma'lumki, Delfe, Pifiy, Nemeysk va Panfin o'yinlari juda ham ommabop bo'lgan. Lekin bu o'yinlarning ichida eng mashhuri Olimp o'yinlari bo'lgan. Olimp o'yinlari maxsus qurilgan Olimp shahrida 4 yilda bir marotaba o'tkazilgan.

Qadimgi Rim Yunoniston bilan qo'shni bo'lishiga qaramay, o'tkaziladigan bayramlar shakli va ko'rinishi jihatidan, tubdan farq qilgan. Yunoniston bayramlarida Afina fuqarolari faol qatnashishgan bo'lsa, qadimgi Rim tomoshalarida tomoshabin bilan ishtirokchi ajratilgan.

Aynan shu davrdan boshlab «tomosha» so'zi «bayram» so'zining sinonimiga aylangan.

Rim imperiyasi davrida qattiq sinfiy kurash yuzaga kelgani, imperiyani kuch bilan boshqarilayotganligi sababli, aholini chalg'itish maqsadida tomoshalar yuzaga keladi.

Qadimgi Rim imperiyasi tomoshalarida sahna texnikasi, ta'sirchan vositalar ancha rivojlandi. Ayniqsa Rimda qurilgan mashhur Kolizey tomoshagohi hozirgacha insonlarni hayratga solib kelmoqda. Kolizey nafaqat kattaligi balki, harakatga keluvchi arenasi, sahna mexanizmlari orqali arenani ko'lga yoki o'rmonga aylantira olish kabi jihatlari bilan butun jahonga mashhur.

Ayniqsa, qadimgi Rimda dushman ustidan qozonilgan g'alabaga bag'ishlangan Triumf paradlari o'ziga xos teatrlashtirilgan harbiy parad edi. Bundan tashqari, gladiatorlar janglari, sirk poygalari, artistlar musobaqalari, dengiz janglari, luperkali, «kichik triumf» - olqishlash kabi tomoshalar mashhur bo'lgan¹.

O'rta asrlarda ommaviy bayramlarning tabaqalashishi intensiv ravishda rivojlandi. Ayniqsa, feodal davlatning kuch-qudratini ko'klarga ko'taruvchi diniy bayramlar rivojlandi. Shu bilan bir qatorda shahar maydonlarida o'tkaziladigan hazil-mutoyibaga qurilgan bayramlar xalqning eng sevimli bayram tomoshalari bo'lib, ko'plab xalq ommasini to'plab, ularning kelajakka intilishi va ertangi kunga bo'lgan ishonchining kurtagi sifatida namoyon bo'lgan.

Rasmiy bayramlar, bu bayramlarning aksi o'laroq, hukmron tabaqaning manfaatlarini himoya qilishga bag'ishlangan edi. Ommaviy bayramlarga bunday yondashish «dam olish» degan tushunchaning o'zgarishiga olib keldi. O'rta asrlarda

¹ U.Qoraboev "O'zbek xalqi bayramlari" -T.: "Sharq" 2002 y. 48 -B.

shaxsning dam olishi, o'z xohishiga qarab erkin bo'lmay, cherkov, din arboblari tomonidan boshqarilgan. Bu davrda diniy bayramlarning o'zi yuzdan ortiq bo'lgan. Katta yer maydonlariga, ulkan siyosiy kuchga ega bo'lgan cherkov, bayramlarni ham o'z qo'liga kiritib, xalq oldida o'z ustunligini namoyish etib, o'zining tashviqot quroliga aylantirgan. Cherkovning badavlatligi bu bayramlarda kostyumlarning turli-tuman rang-barangligini ta'minlab, o'ziga xos teatrlashtirishni vujudga keltirgan, bu esa cherkov marosimlarini ommaviy bayram darajasiga olib chiqishiga yordam bergan.

Jumladan; O'zbekistonda tabiat bayramlaridan keng nishonlanganlaridan biri bu - Navro'z bayramidir. Bu bayramlar haqida X-XI asrlarda yashagan buyuk qomuschi olim Abu Rayhon Beruniy o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida batafsil to'xtalib, uning mohiyatini ochib, "Navro'zning kelib chiqishi haqida turli afsonalar mavjud, lekin bu masalaga ilmiy yondashilsa, "Navro'z"ning paydo bo'lishi har tomonlama ilmiy asoslangan koinot va tabiat qonuniyatlari, kecha va kunduzning vaqt jihatidan barobar bo'lishi, kunduzning uzaya boshlashi, tabiatda jonlanishning boshlanishi, bahorning kelishi sabab bo'lgan. "Navro'z"ning chuqur ildiziga murojaat qilsak, u eng qadimiy davrlarda ibtidoiy odamlarning dehqonchilikka o'tganidan so'ng dalalarda yangi ish mavsumi boshlanishidan oldin o'tkaziladigan bahor bayramlariga borib taqaladi».

Vaqlar o'tib bu bayram rivojlanib, unga mos kun aniqlanib "yil boshi" vazifasini o'tay boshlagan. "Navro'z" bayramini nishonlash bir oyga cho'zilgan. Bu haqida Beruniy quyidagicha yozadi: "Keyingi podshohlar bu oy, ya'ni farvardin mohning barchasi (kunlarini)ni hayitga aylantirib, ularni oltiga taqsim etadilar. Birinchi besh kun podshohlar uchun, ikkinchisi ulug' kishilar uchun, uchinchisi podshohlarning g'ulomlari uchun, to'rtinchisi xizmatkorlar uchun, beshinchisi xalq ommasi uchun, oltinchisi cho'ponlar uchun.

Qadimdan, insoniyat paydo bo'lgan zamondan boshlab, bayramlar shaxsning hayotdagi muvaffaqiyatlari, orzu-umidi, voqea, hodisalar, mehnatdagi va boshqa

sohalardagi yutuqlari, bosib o'tgan yo'llarini chuqur anglash, g'alabalardan faxrlanish, ertangi kunga umid bilan yashash, bayram arafasida bir-birini qutlash, kelajak hayot uchun yaxshi istaklar bildirish, ishlariga omad, baxt tilash, o'zligini, millatini anglash, milliy mafkurasiga ega bo'lishdek g'oyalarni ilgari surgan. Bayramlar vaqt qadriga yetish, uni e'zozlash uchun sharoit yaratadi.

Bayram insonlarning estetik kechinmalariga ta'sir qilib, shaxsning ma'naviy dunyosini boyitadigan vositadir. Bayram va tomoshalarning asosini milliy qadriyatlarga bo'lgan hurmat, ehtirom egallab, insonlarga badiiylik, san'at orqali estetik zavq bag'ishlashdek vazifalar ustuvor turadi. Bayram tashkilotchilari, ayniqsa sseneriychi, rejissyor ishlatilayotgan materiallarning dolzarbligi, hujjatlar, faktlarning aniqligi va ularning badiiy uslublari yordamida sintezlash kabi vazifalar ulardan juda ham katta javobgarlikni talab qiladi. Bunday tadbirlar insonlarning ijtimoiy-psixologik talablariga javob berib, mayda guruhlardan ommaviylikka o'tib, shaxslarning ommaviy harakatidagi faolliklarini oshirib, bayramona dam olishdek sharoitni yaratishga turtki bo'ladi.

Maydonlarda, bog'larda, ko'chalarda o'tkazilayotgan ommaviy tadbirlar nafaqat ommaviy xatti-harakatni yuzaga keltiradi, balki karnavallar, sayillar, festivallarda estetik zavq bag'ishlab, tomoshalarning tomoshaviyligini oshirib, bayramona kayfiyatni vujudga keltiradi. Chunonchi, bayramlarda insonlar yangi, go'zal kiyimlar kiyishadi, lazzatli taomlar tayyorlashadi, hamma ko'tarinki kayfiyatda bo'ladi. Bayram kuni yomonlar-yaxshi, xasislar-sahiy, xunuklar-go'zal bo'ladi. Bayramlarning afzalliklari haqida qancha gapirsak oz, u keng xalq ommasini o'ziga jalb qilib, madaniy, ma'naviy ozuqa berib, hayotimizning barcha jabhalarini keng namoyish qiladi.

Professor E.V. Sokolov bayramlarning ahamiyati haqida quyidagilarni yozadi: «Bayramning ijtimoiy-siyosiy va madaniy ahamiyati shu bilan belgilanadiki, u muhim an'analarni qo'llab, insoniyat madaniyatining yutuqlarini mustahkamlaydi».

Darhaqiqat, bayramlar millatning, jamiyatning moddiy va madaniy sohalaridagi eng yaxshi tomonlarini ko'rsatib beradi.

O'zbekiston bayramlarida an'anaviy xalq pedagogikasi katta ahamiyatga ega bo'lib, hozirgi kungacha bu an'analar bizga yetib kelgan. Ayniqsa, insonlardagi bir-birini e'zozlash, kattalarni hurmat qilish, ezgulikka intilish, go'zallikni asrash, milliy qadriyatlarni qadrlash, ilm-fanga intilish, vatanni sevish kabi chuqur falsafiy g'oyalar ilgari surilib, tarbiyaning poydevori bo'lib xizmat qilgan. Zamonaviy bayramlarimizda ham ana shu xalq pedagogikasining asosiy o'gitlari saqlanib qolgan.

Ommaviy bayramlarni tashkil etishga bo'lgan ehtiyojning pedagogik aspekti shundaki, bu ehtiyoj, qiziqishni seneriy rejissyorlik va tashkilotchilik faoliyatini amaliy qurollar yordamida qondirishga erishishdir. Bayramlarni nazariy hamda amaliy tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, bayram oddiy madaniy-ma'rifiy tadbir bo'libgina qolmay, balki yuqori ijtimoiy, insoniyatning chuqur ildizli hayot faoliyatining kompleks shaklidir. Bu shaklni tadbqiq etish borasida D.M. Genkin, A.A. Kanovich, Ye.V.Rudenskiy, L.S. Lapteva, A.F. Mazayev, U.X. Qoraboyev, B.S.Sayfullayev, F.E.Ahmedov kabi olimlar izlanishlar olib bordilar.

D.M. Genkin bayram va bayramona kayfiyatni tahlil qilib, quyidagi asosiy komponentlar va birlamchi ijtimoiy ehtiyojlarni ajratib ko'rsatadi:

1. Birikishga bo'lgan ehtiyoj, voqealarga bo'lgan shaxsiy chidamlilikni toblab, unga bo'lgan munosabatini izhor etishda bir maqsad sari intilish;
2. Keng ijtimoiy muloqotga intilish ehtiyoji;
3. Jamoa emotsional hayotidagi, jamoa xursandchiligi, tantanasi, intilishlarini namoyon etishga intilish ehtiyoji¹.

Bu g'oyalarning amalga oshishida haqiqiy, kompozitsion jihatdan mukammal, ma'naviy jihatdan boy, bayram tomoshalarini yaratish ommaviy bayramlar rejissyorlaridan jamiyatimiz oldida katta mas'uliyatni talab qiladi. Ommaviy

¹ www.ziynet.uz O'zbekiston ta'lim portal.

bayramlar teatri bu, avvalam bor, qahramonona teatrdir. U o'z g'oyasi bo'yicha masshtabli va monumentaldir.

Ommaviy bayram va tomoshalar haqida fikr yuritishdan oldin biz, bayram bilan tomosha o'rtasidagi farqni anglab olishimiz lozim. «Bayram» tushunchasi, «tomosha» tushunchasidan ancha kengdir. Bayram har doim keng, faol, ijodiy xalq ommasining ishtirok etishi bilan farq qiladi. U katta maydonlarni egallab, hech qanday uzviy sahna maydoni va chegarasiga ega bo'lmaydi. Shu bois madaniy tadbirlar va bayramlar orqali yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishga kata hissa qo'shishini yo'qorida ko'rib chiqdik. Bu bayramlarning yana bir muhimlik darajasi shundaki yoshlarning tarbiyasiga ham o'zgacha ta'sir etadi.

1.2. Madaniy-ma'rifiy ishlar shaxsning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish vositasi sifatida

Umummehnatkashlarning madaniy dam olish, o'z ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga, iste'dod va qobiliyatlarini o'stirishga qaratilgan ijtimoiy foydali faoliyatni uyushtiruvchidir. Odamlar bilan ishlashga da'vat etilgan madaniy-ma'rifiy xodimning qiyofasini vatanparvarlik, insonparvarlik kabi yuksak ahloqiy sifatlarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Chunki bu muassasalardagi har bir ommaviy tadbir, yakkama-yakka tartibdagi suhbat, to'garak yoki havaskorlik uyushmasining mashg'uloti odamlarda o'z ona yurtiga, xalqiga chuqur mehr-oqibat, muhabbat tuyg'ularini shakllarini rivojlantirishga, madaniy-ma'rifiy xodimlarning o'zida vatanparvarlik tuyg'ularini qanchalik mustahkam o'rin olganligiga, o'tkaziladigan tadbirlar mazmunini yangi maqsadga yo'naltirish va ularni bir yo'lga sola bilishiga, tadbir qatnashuvchilarida ijtimoiy foydali fazilatlarining shakllanishiga yordam beradigan ish shakllari va usullarini tanlab, ulardan to'g'ri foydalana olishga bog'liq bo'ladi.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar xodimlari mehnatkashlari o'rtasida g'oyaviy, siyosiy, ommaviy, tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga, ishlab chiqarish ilg'orlashishining joylarda namunaviy hayot kechirayotgan aholilarning tajribalari ommalashtirishga ommaning madaniy dam olishi va xordiq chiqarishini uyushtirishga, ijtimoiy fikrni shakllantirishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazadilar.

Madaniy-ma'rifiy xodimlar xalqqa xizmat qiladi. Xalqning madaniyatini saqlaydi, targ'ib qiladi, yangi madaniyat va istirohat, san'at asarlarining paydo bo'lishida ularning roli nihoyatda kattadir. Ular xalq havfsizligini havaskorlik san'atini o'rganuvchilar, rivojlantiruvchilar, ommalashtiruvchilar, uning ijodini taraqqiy ettiruvchilar hisoblanadi.

Jamiyat rivojlanishiga o'z xissasini qo'sha oladigan o'tmish avlodlarining ilmiy, jangavor, mehnat mahorati an'alarining, ilg'or tajribalarini va ilmlarini meros qilib

olgan ma'naviy pok, ahloqiy va jismoniy barkamol, mehnatsevar, insonparvarlik g'oyalariga sodiq qobiliyatini, izlanuvchan, bunyodkor, ijodkor shaxsni shakllantirish, mustaqil vatanimizning buyuk kelajagini yaratuvchi komil insonni tarbiyalash dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Bu tarbiyaning bo'sh yo'li maqsadi yo'lida komil ishonch bilan harakat qiladigan va qiyinchilikni yangi jamiyat quruvchilari tarbiyasi yo'lidir, bu vazifalarni xalq etish har bir kishi ma'naviy hayotning barcha asosiy tamoyillarini rivojlantirish demakdir.

Barkamol avlodni tarbiyalashda madaniy-ma'rifiy muassasalarning ahamiyati va o'rni beqiyosdir. Bu muassasalar ommaning ijtimoiy-siyosiy, badiiy havaskorlik ijodiyotini har tomonlama rivojlantirish, ularning madaniy dam olishini tashkil etish omillardan biridir.

Rekreativ sayillarda dam olish va hordiq chiqarish asosiy fo'unksiyadir. Kalendar bayramlari va marosimlarida dam olish va hordiq chiqarish insonning tabiat bilan munosabatga kirishishidan keyin keladi. Ularda tabiatni o'z istaklariga bo'ysundirish, undan biror narsa so'rash, tilash, xullas, uni o'z saxovatini ayamalik, qilgan mehnatiga yarasha taqdirlashga undash yotadi. Ushbu kompensatsiya fu'unksiyasi kalendar bayramlari va marosimlarida yitakchilik qiladi.

Rekreativ sayillarda esa kishining og'ir mehnatdan keyingi psixo fiziologik, faollikni nafaollik, jismoniy mehnatni aqliy mehnat, aqliy mehnatni xayol, orzu, tilaklar yoki xazil- o'yinlar bilan almashtirish ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Rekreativ sayillarga «Yalpiz sayli», «Gul sayli», «Tog' sayli», «Dala sayli» kabi xalqimiz etnik madaniyatidan joy olgan ommaviy-madaniy tadbirlar kiradi. Yalpiz sayli. Bahordan darak beruvchi yalpiz soy bo'ylarida va ariq lablarida bo'y cho'za boshlashi bilanoq yosh qizaloqlar, bo'y yitgan qizlar va ayollar yalpiz sayliga oshiqadilar. Yalpiz sayliga yo dugonalar yig'ilishib, yo oilaviy bo'lib chiqiladi. Ayollar yalpizlardan terib, omonlik-somonlik qilishadi, sof havoda davra qurib

o'tirib, o'zlari bilan olib kelgan turli yeguliklardan tanovul qiladi, qo'shiq aytib, raqsga tushadi, tabiat qo'ynida miriqib dam oladi.

Gul sayli. Gul-yaxshilik, himmat, go'zallik ramzidir. Gulni hurmat va ehtirom ramzi sifatida yoru-do'stlarga taqdim etish, o'zaro bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbatini gul bilan izhor qilish an'anasi kishilarni ezgo'-niyat, mehr-oqibat, shafqat va diyonat ro'xida tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Shuning uchun ham xalqimiz etnik madaniyatida gul sayllari «Boychechak sayli», «Binafsha sayli», «Chuchmomo sayli», «Qizil gul sayli», «Lola sayli» keng o'rin olgan. Bu sayllarning asosiy sub'yektlari - ayollar va qizlardir. Xorazm va Buxoroda «Qizil gul sayli», Farg'ona vodiysi va Toshkent atroflarida «Lola sayli», tog'li Denov tumanlarida «Sumbula» sayli, «Boychechak» sayli uyushtirilgan. Lola sayli qadimda «Guli surx» («Qizil gul») deb atalgan¹.

U ijtimoiy moxiyati va mazmuniga ko'ra, kishilarning dam olish, ko'ngil ochish, hordiq chiqarishiga mo'ljallangan marosimdir. Lola saylida nafaqat lola, shu bilan birga chuchmomolar, qoqigullar, qizg'aldoqlar terish, ularni bir-birlaridan ajratish, boshqalarga hadya etish an'ana bo'lgan. Qizlar va yosh qizaloqlar to'planib bog'larda gullar terishgan, sochlariga tolbargak to'qishgan. Tolbargakni sochlariga taqib, o'yin-kulgu qilishgan. Bahorlashib kelish. Erta bahorda shahar qizlarini qishloqlardagi qarindoshlari, dugonalari «bahorlashib ketinglar» deb, o'z qishloqlariga mehmonga taklif qilishgan. Qish bo'yi zerikkan, bahorni sog'ingan qizlar aravalarda qishloqqa yo'l olishgan, yo'l bo'yi lapar va qo'shiqlar aytib, xursandchilik qilib borishgan.

Qishloqda ularni har kech bir xonadon soxibasi mehmonga chaqirgan. Qizlar dutor, doyra chalib, qo'shiq aytib, raqsga tushishgan, she'rxonlik, g'azalxonlik qilishgan. Mehmon qizlar qishloqda bir necha kun hordiq chiqarishgan, qishloqning so'lim, joylarida sayr qilishgan. Shu bilan birgalikda shaharlik qizlar qishloq odamlari turmush-tarzi bilan yaqindan tanishishgan, qishloq xotin-qizlari bilan

¹ www.ziynet.uz O'zbekiston ta'lim portali

fikr almashishgan. Dugonalarni bir-birlarinikiga mehmonga borishlari bir yoqlama bo'lmay, qishloq qizlarining ham shaharlik dugonalarinikiga mehmonga borish an'analari bo'lgan. Dugonalar o'rtasidagi bordi-keldining ishtirokchilari faqat turmush qurmagan yosh qizlar bo'lmagan, ularga hamrox qilib ba'zan yoshi ulug'roq ayollardan birortasi yuborilgan. Qishloq qizlari ham o'z navbatida shaharda yayrab dam olgan, 60 ta shahar hayoti bilan tanishgan.

Xalqimiz etnik madaniyatiga xos ushbu mehmonnavozlikning e'tiborga loyiq tomoni shundaki, mehmonga chaqiruvchilar faqat boy xonadon soxiblari bo'lmay, chor-nochor kun ko'rayotgan xonadon soxiblari ham bu an'anadan chetda qolmagan. Dugonalararo mehmonga boradigan qizlar asosan bo'y yitgan qizlar bo'lganligi, balki, ular keyingi bahorgacha turmushga uzatilib ketishi mumkinligi va xech qachon dugonalari davrasida qizlik davridagidek yayrab, o'ynab kulolmasligi uchun ham ota-onalar qo'llaridan kelganicha bu an'anani o'tkazishga harakat qilgan.

Bu an'ana orqali shahar va qishloq qizlari bir-birlaridan pazandalik, to'qish va tikish sirlarini, uy tutishni, o'zaro muomala madaniyatini, mehmon kutish odobini o'rgangan. Bir-birlari bilan fikr almashib, keksa yoshdagi ayollardan turmush saboqlari to'g'risidagi hikoya va rivoyatlarni tinglab, o'z dunyoqarashini oshirgan. Tog' sayliga:

- a) bahorda tog' lolasi ochilganida;
- b) yozning jazirama kunlarida havo almashtirish niyatida;
- v) kuz faslida «do'lana sayli»ga;
- g) qish faslida «qor sayli»ga chiqishgan.

«Tog' sayli»ga odatda oilaviy yoki tengdoshlar yig'ilishib chiqish an'ana bo'lgan. Yoshlar tog' etagida o'yin-kulgu qilishgan, o'z kuchiga ishonganlar tog' cho'qqisiga ko'tarilgan. Ular tog' cho'qqisida turib dillaridagi niyatlarini aytgan. O'zlari bilan olib chiqqan idishlarda tog' cho'qqisidan pastda qolganlarga qor olib tushgan.

«Tog‘ sayli» birinchidan, qishiga zarur ob-havoda bo‘lish, muxitni o‘zgartirish imkonini beradi. Ikkinchidan, kishi uy-ro‘zg‘or, kundalik tashvishlarini unutib, go‘zal tabiat qo‘ynida dam oladi. Uchinchidan, kishi o‘z muxiti tashvishlari bilan o‘ralashib qolmay, balki tog‘li xalqlarning turmush tarzi, yashash sharoiti, urf-odatlarini bilan ham yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bu esa unda xayot rang-barangligidan baxra olish ko‘nikmasini shakllantiradi. Bog‘ sayli o‘zbek etnik madaniyatida juda qadimiy marosimligi bilan ajralib turadi. Ilgari qizaloqlar o‘gil bolalar bilan «Quvlashmachoq», «Bekinmachok», «Jami-jami», «Oq terakmi-ko‘k terak», «Qizil durracha» kabi ko‘plab sog‘lomlashtirish, «Tez aytish», «Topishmoq aytish», «Maqol aytish», «Ertak aytish» kabi aqliy o‘yinlar o‘ynagan. Shu bilan birgalikda faqat qizlarga xos «Xola-xola», «Qo‘g‘irchoq», «Uy-uy», «Mehmon-mehmon», «Ona-bola» o‘yinlari mavjud edi. U. Qarboyevning yozishiga ko‘ra, «Hammabop o‘yinlar bilan bir qatorda o‘g‘il bolalar va qizlar o‘yinlari, keyinchalik esa erkak va ayollar o‘yinlari bo‘lgan... O‘g‘il va qiz bolalarga xos instinkt 2-3 yoshdan namoyon bo‘la boshlaydi. Masalan, yosh qizchalarda qo‘g‘irchoq o‘yiniga moyillik sezilsa, o‘g‘il bolalar esa ish va urush qurollariga o‘xshash o‘yinchoqlar tanlab o‘ynashadi... Qizlar esa: «Durra», «Chori-chanbar», «Tortishmachoq», «Bolkon-bolkon», «Anaqay», «Bakki (Cheqimto‘sh, Tuppa to‘sh)», «Qoz-qoz» kabi o‘yinlar o‘ynashgan.»¹

Qizlarning 9-10 yoshga to‘lganlaridan keyin, o‘g‘il bolalar bilan birga o‘ynashi uyat hisoblangan. Qizlar begona kishilarning ko‘zi tushmaydigan pana joylarda, bog‘larda to‘planib, o‘yin-kulgu qilishgan, dam olishgan. Misol uchun, qizlardan birining bog‘ida to‘planishib, mevali daraxtning shoxiga arqon osib, arg‘imchoq uchishgan. Odatda arg‘imchoqlar mevasiz daraxtning shoxiga osilmagan, sababi qizlar kelajakda farzandsiz bo‘lib qolmasin, degan irim bo‘lgan. Bir qarashda arzimas tuyuladigan ushbu irim-sirim ham o‘zbek xalqi etnik madaniyatida bolajonlik naqadar muxim o‘rin tutganini ko‘rsatadi.

¹ www.ziyounet.uz O‘zbekiston ta’lim portal.

«Bog' sayli» xalqimiz orasida juda ommalashib ketgan an'analardan biridir. Bugun O'zbekistonning deyarli barcha shahar va tuman markazlarida istirohat bog'lari mavjud.

Ularda nafaqat yashil o'simliklar, gullar va daraxtlar, balki, turli o'yinxonalar, tamaddixonalar, raqsxonalar, ko'l, cho'milish joylari va shunga o'xshash dam olish o'choqlari faoliyat ko'rsatadi.

Dala saylida xalqimizning yirga, ona zaminimizga cheksiz mehr-muxabbati namoyon bo'ladi. Undan maqsad dala, daryo bo'ylari, adir va tog'lar, o'rmon joylarga borib sayr qilish, tabiat go'zalligidan, sof havodan, o'simliklarning, gullarning muattar xidlari, chiroyi, zilol suvlarning salqinidan baxramand bo'lishdir. Ayollar dala saylida qo'shiq aytib, dilida yig'ilgan his-tuyg'ularini kuy orqali ifodalash imkoniga ega bo'ladi. Shuning uchun, u kishiga badiiy-estetik zavq beradi, 62 ko'ngilli dam olishni ta'minlaydi, hamjihatlikni mustaxkamlaydi. Hozirgi kunda ba'zi (ko'proq shaharlik) ayollar o'z «Gap»ini dala saylida o'tkazmoqdalarki, bu marosim ishtirokchilariga maroqli dam olish, roxatlanib cho'milish, gul terish va turli mevalardan baxramand bo'lish imkonini bermoqda. Tabiat bilan bog'liq marosimlarda kishilarimizning borliqqa, yon-atrofga, dunyoning ontologik asoslariga bo'lgan munosabatlari o'z aksini topadi. Ularda ajdodlarimizning farovon turmush kechirishi uchun muxim bo'lgan tabiat xodisalariga, suv, yir, havoga bevosita murojaat etish kabi mifologik tasavvurlari ham uyg'unlashib keladi.

Xuddi shuningdek, tabiat bilan bog'liq marosimlarda kalendar bayramlari va rekreativ belgilarni ham ko'rish mumkin. Lekin, ulardagi bosh maqsad tabiatni inson iltijolariga muvofiq raxmdil, mehribon, saxiy bo'lishga undashdir. Tabiat bilan bog'liq marosimlarga «Sus xotin», «Suvda cho'milish», «Olov xotin», «Choy momo» kabilarni kiritish mumkin. «Sus xotin» marosimi O'rta Osiyo xalqlarining suvga bo'lgan baland e'tiqodidan kelib chiqqan. «Qadimdan O'rta Osiyo xalqlari ikki xil yo'l bilan sug'oriladigan dexqonchilik bilan shug'ullanib kelganlar. Bular:

soʻnʼiy hamda tabiiy sugʻorishga asoslangan dexqonchilik rayonlaridan iborat. Soʻnʼiy sugʻorishga asoslanmagan territoriyalarda yashovchi axoli bahor oylarida yogʻin boʻlmay qurgʻoqchilik boshlansa, «Sus xotin», «Sut xotin», «Suv xotin», «Chala xotin» kabi bir necha nomlar bilan yuritiloʻvchi yomgʻir chaqirish marosimlarini oʻtkazishgan.»¹

«Sus xotin» zardushtiylik davridan buyon mavjud boʻlgan marosimlardan biri boʻlib, u:

- marosimni tashkil etish;
- marosimni oʻtkazish;
- is chiqarish tartibida oʻtkazilgan.

Bahorda yomgʻir yogʻmay, qurgʻoqchilik boʻlishi chorvaning qirilib ketishiga, ocharchilikka olib kelgan. Qadimda kishilar qurgʻoqchilik sababi gunoxdarning koʻpayib ketganligida deb bilishgan. Qishloq oqsoqollari soʻzga chechan, tashkilotchi ayollarni chaqirib, ularga «Sus xotin» marosimini tashkil etish haqida koʻrsatma bergan. Marosimni oʻtkazish vaqtida oʻt-oʻlan, mayda shox-shabbdan ulkan ayol qiyofasidagi «Sus xotin» gavdasi yasalgan. Uni tiklab qoʻyib, atrofidan aylangan holda «Sus xotin» termalari aytilib, marosim ijro etilgan. Har kim chelakda, koʻza-yu kosada, hatto qoʻlida ariqdan suv olib, «Sus xotin»ga sepgan... Albatta, bu odat haftaning xosiyatli kunlari sanalgan yakshanba, payshanba, juma kunlari oʻtkazilgan. Marosimda quyidagi qoʻshiq kuylangan:

Havolarni yogʻdirgin, sust xotin,
Bugʻdoylarni boʻldirgin, sust xotin.
Osmondan tomchi tashlab, sust xotin,
Elu yurtni toʻydirgin, sust xotin.

«Sust xotin» qoʻshigʻini bir ayol aytib turgan, uning naqorat qismini hamma baravar takrorlagan:

¹ Suyunov A. "Ommaviy madaniyat" koʻlankasi yoxud maʼnaviy taxdidlar haqida.-T.: "Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati" 2010 y

Sust xotin, sulton xotin,
Ko‘lankasi maydon xotin,
Sust xotinga ne kerak?
Sharros, sharros yomg‘ir kerak.

So‘nggi bosqichda maxsus joyda butun axoli nomidan is chiqarilgan. Zardushtiylikka xos kuygina marosimlar o‘zbek etnik madaniyatidan joy olgan. To‘g‘ri, ularning barchasi saqlanib qolgan emas, ayrimlari yo transformatsiyaga uchragan yoki unutilgan. Shunday marosimlardan biri «O‘t ona», «Olov ayol»dir. Bu marosim uchun tajribali, mas‘uliyatli, zardushtiyalar urf-odatlarini bilgan ayol tanlab olingan va u o‘z vazifasini (o‘tni asrash) bajarishga maxsus rasm-rusumlar bajarilganidan keyin kirishgan. «Choy momo» marosimi kuchli bo‘ron yoki to‘fonni og‘ir mehnat bilan yitishtirilgan ekinlarni payxon qilmaslikka, mevalarini bevaqt to‘kmaslikka chaqirishga qaratilganidir. Marosim qatnashchilari asosan ayollar bo‘lib, ular shamol xomiysidan tabiatdagi yovo‘z kuchlarni jilovlashni so‘rashgan.

Albatta, xalqimizning rekreativ - dam olish va hordiq chiqarish an‘analari keyingi yillarda keskin transformatsiyaga uchramokda. Ushbu novatsion va innovatsion o‘zgarishlar tabiiy xoldir, ammo xalqimiz etnik madaniyatidagi o‘z qimmatini yo‘qotmagan dam olish va hordiq chiqarish an‘analarini asrash, ulardan samarali foydalanish ham muxdmdir. Sog‘lom jamiyat, E. From aytganidek, faqat «shaxs erki va ehtiyojlarini qondirishga munosib shart-sharoitlar» yaratish bilangina emas, shu bilan birga xalq, millat etnik madaniyati, etnopsixologiyasiga va an‘analariga tayangan holdagina barpo etiladi. Ana shundagina jamiyatda inqiloblarsiz, ag‘dar-to‘ntarsiz evolyutsion rivojlanish ta‘minlanadi.

Bo‘sh vaqt va undan foydalanish ijtimoiy hayotga jalb etishning eng muxim yo‘nalishlaridan biridir. Vaqtga munosabat - hayotga munosabat, kishining o‘z burchiga, hayotiy maqsadlariga munosabatidir. «Vaqtimizning bir qismini tortib oladilar, deb yozgan edi bundan ikki ming yil oldin Seneka, bir qismini

o'g'irlydilar, bir qismi esa bexuda o'tadi. Biroq hammasidan uyatlisi, uni o'zimizning befarqligimiz tufayli yo'qolganidir.»

Vaqtning ijtimoiy ahamiyati oshib borayotgan va shaxsning faol hayot tarzi uchun imkoniyatlar kengaygan hozirgi paytda vaqtning qadriga yetmaslik mumkin emas. Chunki, vaqt borliqni, o'z navbatida insonning ham o'zgarishini belgilovchi me'yordir. Shuning uchun ham madaniyatshunoslar bo'sh vaqtni inson ijodiy faoliyatidagi jarayonlar bilan dialektik bog'liqlikda o'rganadi va insondagi ijodiy kuchlarning ro'yobga chiqishini bo'sh vaqtning hajmi va undan foydalanish ko'nikmalari bilan bog'laydi. Xalqimizning kuniga necha soat bo'sh vaqti borligini aytish qiyin, chunki bu borada rasmiy ham, ilmiy ham kuzatish o'tkazilmagan.

Xalqimiz tafakkuri va etnopsixologiyasida o'z xalqiga xos an'analarni saqlab qolish, xatto turmush qiyinchiliklariga chidab bo'lsa-da, ajdodlarimiz tarixiy-madaniy merosini asrash, uni kelgo'si avlodlarga yitkazish xususiyati mavjud. O'zbek xalqining ushbu etnomadaniy belgilaridan milliy istiqlool nuqtai nazaridan ratsional foydalanish, ularni xalq ijodi va san'atini rivojlantirishga yo'naltirish, eng muximi ijtimoiy-madaniy hayotimizda ro'y berayotgan novatsion va innovatsion o'zgarishlarga, jamiyatii modernizatsiyalash jarayonlariga xalqimizni kengroq va dadil jalb etish zarur. Etnik madaniyatning mavjudlik sharti, uni ijtimoiy-madaniy hayotda tarixiy-madaniy paradigma sifatida barqaror bo'lishi xalqimizning ma'naviy-madaniy qiziqishlariga bevosita bog'liqdir.

Ushbu qiziqishlar qanchalik rang-barang va zamonaviy extiyojlarga, talablarga javob bersa, bir tomondan, an'anaviy madaniyat (etnik madaniyat)ni avaylab asrash uchun muxim ijodiy muxit yaratilgan, ikkinchi tomondan, etnik madaniyatni modernizatsiyalash orqali uni ijtimoiy hayotning real (ijtimoiy-madaniy) muammolarini xal etish vositasi topilgan bo'ladi.

Quvnoqlar va zukkolar tanlovlari hamda intellektual o'yinlar orqali shaxs kamolotiga ta'sir kuchidan samarali foydalanish usullari juda muhim o'rin tutadi.

Masalan quvnoqlar va zukkolar tortishuvlari ko‘p yillardan buyon yoshlarni tarbiyalash vositasi bo‘lib kelgan. Topishmoqlar topish, baxribayt, tez aytishlar ham aslida milliy asosdagi quvnoqlar va zukkolar tortishuvidir. Lekin XX asrning ikkinchi yarmida radio va televideniya «Quvnoqlar va zukkolar» klublari namoyish etila boshlagach, bu tadbir xalq orasida, ayniqsa, o‘quvchi va talaba yoshlar orasida keng tarqaldi¹.

Quvnoqlar va zukkolar tanlovlarining tarbiyaviy ahamiyatini ta'minlaydigan muhim psixologik xususiyat shundan iboratki, ular musobaqa, tortishuv, raqobatni rivojlantirish orqali yoshlarning bilim olishga kishilar bilan munosabatga kirishishlarida muomalaga kirishishni kishilar bilan munosabat o‘rnata olishga bo‘lgan intilishlarini kuchli rag‘batlantiradi. Tortishuvda qatnashadigan jamoalar a'zolari musobaqaga tayyorgarlik ko‘rish bosqichida belgilangan mavzu buyicha bilimlarni atroflicha to‘plashga harakat qiladi. Tortishuv mavzulari, odatda, o‘quvchi va talabalar olayotgan ixtisoslik bilan bog‘liq ekanini nazarda tutsak, bu tadbir yoshlarning kasbiy o‘sishi va yetuk mutaxassis bo‘lishini ta'minlashda qanchalik muxim rol o‘ynashini tasavvur qilish qiyin emas. Bundan tashqari, tortishuv jarayonida murojaat qilinadigan ma'naviy, axloqiy, estetik masalalar ishtirokchilarning kommunikativ madaniyati, ma'naviyati, axloqiy rivojiga kuchli turtki beradi.

«Quvnoqlar va zukkolar klubi» uchrashuvlarining tarbiyaviy imkoniyatlari tortishuvlardan kuzda tutiladigan asosiy maqsad va vazifalar bilan boqliq. Bu maqsad va vazifalar quyidagilardan iborat:

- O‘quv yurtlari yoshlarining qiziqishlarini muvofiqlashtirgan holda, qiziqarli dasturlar tayyorlash va keng omma o‘rtasida namoyish qilish;
- yoshlar muammolarini, kamchilik va nuqsonlarini yumoristik va satirik janrlar orqali ko‘rsatib berish;

¹ Suyunov A. “Ommaviy madaniyat” ko‘lankasi yoxud ma’naviy taxdidlar haqida.-T.: “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” 2010 y

- ularni turli mavzular yuzasidan tezkor fikr yuritishga moyillash;
- qaysi doirada bo'lmasin, shaxsiy fikr bildirishlarida o'ziga xos zamin hozirlash;
- talabalarning zukkolik xususiyatlarini shakllantirishga xizmat qilish;
- talabalarning nutq madaniyatlarini o'stirish borasida ham ijobiy natijalarni qo'lga kiritish;
- talabalarning bo'sh vaqtlarini kungilli o'tkazish;
- yoshlarning maroqli dam olishlari uchun qiziqarli dasturlar bilan chiqishlar qilib, ularning bu sohadagi iste'dodlarini o'stirish.

Quvnoqlar va zukkolar bellashuvlarining tarbiyaviy samaradorligi ko'p jihatdan mavzuning tanlanishiga bog'liq. An'anaga ko'ra, bellashuv mavzusini tashkiliy qumita belgilaydi va tortishuvga taklif etilgan jamoalarni tanlangan mavzu bilan kamida yigirma kun oldin tanishtiradi. Mavzu bilan jamoalarni ikki-uch, xatto turt oy oldin tanishtirish mumkin. Lekin, jamoalarni mavzu bilan bir necha oy oldin tanishtirish, amaliyot ko'rsatishicha, ularning, hali vaqt ko'p-ku, degan kayfiyatga tushib qolishini ko'rsatadi. Shuning uchun bu jamoalarni mavzu bilan bir-bir yarim oy avval tanishtirish, bizningcha optimal muddat hisoblanadi. Shu muddat davomida raqib jamoalarning a'zolari belgilangan mavzu bo'yicha imkon boricha ko'proq, ma'lumot to'plashga intiladi. Buning uchun ular kitoblar, darsliklar, qo'llanmalar, gazeta va jurnallar o'qishi, mutaxassislariga murojaat qilishi kerak bo'ladi. Bu jarayonda ularning kasb buyicha bilimlari oshadi, malaka va kunikmalari rivojlanadi, dunyoqarashi kengayadi. Tortishuv tarkibiga kiritilgan musiqiy salomlashish, musiqiy tabrik va boshqa nomerlar ishtirokchilar estetik didining o'sishiga xizmat qiladi.

Akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlaridagi madaniy-ma'rifiy tadbirlar ssenariysini tuzish va o'tkazish bo'yicha uslubiy tavsiyalar. Ta'lim muassasalarida utkaziladigan madaniy-ma'rifiy tadbirlar uchun, avvalo, ssenariy tuziladi. Ba'zi o'quv yurtlarida bunday tadbirlarni ssenariy tuzmasdan ham o'tkazish xollari uchrab turadi. Lekin bunday tartibda utkazilgan tadbirlar ko'pincha pala-

partish va past saviyada bo'ladi, bunday tadbirlarning tarbiyaviy ahamiyati ham yetarlicha bo'lmaydi.

Madaniy-ma'rifiy tadbirlar ssenariysini tuzishga bir necha hafta oldin kirishiladi. Uzoq davom etadigan va murakkab tadbirlar ssenariysini tuzish uchun esa bir necha hafta emas, balki oylar talab qilinadi.

Madaniy tadbirlarning ssenariysiga kompleks yondashuv taqozo etiladi. Bir tomondan, ssenariyning badiiy jihatlari e'tiborga olinsa, ikkinchi tomondan, uning psixologik va pedagogik ta'siri oldindan rejalashtirilishi kerak. Kuzatishlarning ko'rsatishicha, ko'p hollarda ssenariylarning adabiy-badiiy xususiyatlariga ko'p e'tibor berilib, madaniy, kommunikativ jihatlar «esdan chiqib qoladi». Bunday ssenariy asosida o'tkazilgan tadbirlarning tarbiyaviy ta'siri ham albatta yuqori bo'lmaydi.

Tadbirlarning real voqea va xodisalar negizida tuzilishiga alohida e'tibor qaratish lozim. Odatda, bu tadbirlar ssenaristlar tomonidan to'qib chiqarilgan syujet asosida tuzilmaydi, balki shu o'quv yurti yoki umuman ta'lim muassasalari hayotiga aloqador bo'lgan voqealar negiziga quriladi. Bunda, albatta, voqealarga badiiy-estetik rang va buyoq beriladi. Shunday qilib, ho'jjatlilik, badiiy-estetik va psixologik-pedagogik jihatlar ta'lim muassasasidagi madaniy-ma'rifiy tadbirlarning uch muhim qirrasini tashkil etadi. Ho'jjatlilik tomoshabinlar tomonidan o'tkazilayotgan tadbirga pisbatan ishonch xissini uyg'otsa, badiiy-estetik xususiyatlar bu tadbirga joziba baxsh etadi. Psixologik-pedagogik jihatlar esa o'tkazilayotgan tadbirlardan ko'zlangan maqsadga erishishni ta'minlaydi.

Bayon qilingan fikrlarni nazarda tutib, madaniy- ma'rifiy tadbirlar ssenariysi va o'tkazilishidagi pedagogik tamoyillarga alohida e'tibor qaratdik. Bu tamoyillardan birinchisi, tadbir ssenariysini jamoa bo'lib yoki hech bo'lmasa jamoa ishtirokida tayyorlash. Bu tamoyilning tarbiyaviy ahamiyati muximligi shundaki, birinchidan, ko'pchilikning maslaxati bilan tayyorlangan ssenariy ko'pchilikka ma'qul bo'ladi, Ko'pchilikka ma'qul bo'lgan tadbirning esa tarbiyaviy ahamiyati ham yuqoriroq

bo'ladi. Ikkinchidan, ssenariyni tayyorlash yoki xech bo'lmasa uni muhokama qilishda ko'pchilikning ishtirok etishi tadbirning interfaol o'tishi uchun asos yaratadi¹.

Stsenariy tayyorlashdagi ikkinchi muxim tamoyil tarbiyaviy samaraga obrazlilik orqali erishish tamoyilidir. Yuqorida bayon qilinganidek, madaniy tadbirlarning muhim jixatlaridan biri badiiy-estetik xususiyat, ya'ni obrazlilik hisoblanadi. Tarbiyaviy epizod va faktlar obrazlilik libosida berilgandagina yuqori ta'sir kuchiga ega bo'ladi.

Uchinchi tamoyil esa, badiiy va ho'jjatli materiallarning o'zaro mutanosibligini ta'minlashda namoyon bo'ladi. Ba'zi xollarda ho'jjatlilik ustun bo'lib, badiiylik xira tortsa, boshqa xollarda buning aksicha, badiiylik ustuvor bo'ladi, ho'jjatlilikka kam e'tibor beriladi. Har ikki xolatda ham o'tkazilayotgan tadbirning qiymati pasayadi. Tarbiyaviy samaradorlik yuqori bo'lishi uchun xar ikki tomonning o'zaro mosligi va mutanosib bo'lishiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Madaniy tadbirlarning ssenariysini tuzishdagi to'rtinchi pedagogik tamoyil shu tadbirlar uchun tanlanadigan voqea-xodisalar, faktik materialni to'g'ri tanlash va baholash tamoyilidir. Faktlar, ma'no-mazmunga ko'ra odamlarda quvonch yoki tashvish uyg'otishi, ularning jahlini chiqarishi, g'azabini keltirishi yoki bo'lmasa, ularni jasoratga undashi mumkin. Bularning barchasi tanlangan materialning mohiyatiga va sahnada unga berilayotgan badiiy-estetik talqinga bog'liq.

Odatda, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtida har bir madaniy-ma'rifiy tadbirni tayyorlash jarayonining umumiy rejasini shu o'quv yurtida madaniy-ma'rifiy ishlar bilan shururlanadigan xodim va muayyan fan yo'nalishi buyicha dars o'tadigan pedagog-o'qituvchi hamkorlikda tuzadi va bu ishga ma'naviyat va ma'rifat masalalari buyicha prorektor yoki direktor o'rinbosari rahbarlik qilib, madaniy tadbirlarning qanday o'tkazilayotganini doimiy ravishda nazorat qilib boradi. Yuqorida bayon qilingan tamoyildan kelib chiqqan xolda, ssenariy tayyorlash jarayoniga imkon

¹ Suyunov A. "Ommaviy madaniyat" ko'lankasi yoxud ma'naviy taxdidlar haqida.-T.: "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" 2010 y

boricha ko'proq o'quvchilar, talaba va o'qituvchilarni jalb etish tadbirning tarbiyaviy ahamiyatini oshiradi.

Ma'naviyat va ma'rifat masalalari buyicha prorektor muntazam tarzda yig'ilish o'tkazib, o'quv muassasasida o'tkazilayotgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarni qanday tayyorlash yuzasidan tavsiya va maslahatlar berib borishi, bu boradagi barcha masalalarni ko'rib chiqishi va hal etishi, bu tadbirlarning samarali o'tkazilishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratishga yordam berishi maqsadga muvofiqdir.

Har bir tadbirni oldin kurikdan o'tkazish, muxokama qilish, sungra namoyish qilishga tavsiya etish lozim.

O'quv muassasasida ssenariylar mavzulari muxokama qilinib, uning muallifi (mualliflari) va postanovka qiluvchi rejissyor tasdiqlanadi. Stsenariyni madaniy-ma'rifiy ishlar buyicha mutaxassis xodim (rejissyor) sahnalashtiradi.

Professor U. Qoraboyev aytishicha, «Stsenariy - italyancha so'z bo'lib, asarning sxemasi, plani degan tushunchani bildiradi. Badiiy-ommaviy tadbilar ssenariysi bu keng ma'noda hayotiy va ho'jjatli materiallarning badiiylashtirilgan adabiy-publitsistik shakli demakdir».

Tadbir ssenariysi asosida muxim ijtimoiy-gumanitar va o'quvchi-talaba yoshlarning hayotiga yaqin bo'lgan vatanparvarlik, axloqiylik, yurtga, oilaga, jamoaga muhabbat ruhidagi mavzu mujassamlashtirilishi kerak. Madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda, o'quvchi talabalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, talim va tarbiya psixologiyasiga amal qilish talab etiladi. Sh. Barotov ta'lim hamda tarbiya psixologiyasi terminlariga quyidagicha izoh bergan: «Ta'lim psixologiyasi o'quvchilardagi bilim, ko'nikma va o'quv malakalarini tez va puxta o'zlashtirish qonuniyatlarini o'rganish va o'rgatishni o'z ichiga oladi. O'qituvchi hamisha ta'limning turli usullaridan (masalan, optimal ta'lim, evristik-ijodiy ta'lim, o'ziga xos yoki tabaqalashtirilgan ta'lim va xokazo) unumli foydalanish yullarini izlashga intilmog'i lozim. Tarbiya psixologiyasi shaxsning aqliy, axloqiy hamda estetik jihatdan tarkib topishi va rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganadi, taxlil qiladi»¹.

Eng muximi, o'tkaziladigan barcha tadbirlar milliy g'oyamizning asosiy tushuncha va tamoyillari ruhida bo'lib, yoshlarimizda sog'lom dunyoqarash, yuksak vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalashga, ularning ma'naviy barkamol bo'lib voyaga yetishiga xizmat qilishi, xalqimizning o'z oldiga qo'ygan maqsadlarning tug'iligiga ularni ishontirishi kerak. Faqat shundagina xar bir tadbir o'zining ma'iaviy-mafkuraviy vazifasini bajargan bo'ladi.

II. BOB. SHAXS KAMOLOTIDA BO‘SH VAQT OMILINING O‘ZIGA XOSLIGI

2.1. Shaxs kamolotga erishishidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari

XX asrda yoshlar muammosi deb nomlangan bir qator dolzarb va keskin masalalar jamoatchilik hukmiga havola qilinib, XXI asrga o‘tkazildi. Ularning asosiy qismini ta'lim, bandlik, ish haqi borasida boshqa ijtimoiy guruhlar bilan tenglik, hokimiyat ishiga aralashish singari va boshqa ijtimoiy muammolar tashkil qiladi. Biroq yoshlarni ma'naviy rivojlantirish, ularning ijtimoiylashuvi, ijtimoiy yuzaga chiqarishi va o‘zini o‘zi yuzaga chiqarishi kabi muammolar ancha faol muhokama qilinmoqda. Buni bir qator ob'yektiv sabablar taqozo etmoqda.

O‘smirlik insonning ichki dunyosini, dunyoqarash qoidalarini, axloqi normalarini shakllantirish juda muhim bo‘lgan davr hisoblanadi. Boshqacha aytganda, yoshlik inson oldida: «Men kimman?», «Nima uchun yashamoqdaman?», «Olam yaxshiroq bo‘lishi uchun nima qilish darkor?» singari abadiy savollar ilk bor kundalang bo‘ladigan yosh. Bu savollardan birortasiga bo‘lsada, javobning topilmasligi hayotni bunyodkorona barpo etishdan voz kechish bilan barobar. Yoshlar ko‘pincha kutishga hamda xatolardan saboq chiqarishga tayyor bo‘lishmaydi. Ular haqiqat va dolzarb hayotiy masalalarga javob izlab, o‘zlariga qiziqishni, haqiqat mavjudligini his etgan hamda ma'naviy haqiqat lazzatini topgan joyga murojaat etishadi.

«Yoshlar» tushunchasi ijtimoiy-demografik guruh ta'rifi sifatida XVIII asr oxiri - XIX asr boshida istifodaga kiritilgan. Bungacha yoshlar aloxida ijtimoiy guruh sifatida e'tirof etilmagan. XIX asr oxirigacha yoshlar muammolariga bilvosita, shaxsni rivojlantirish, tarixan muayyan jamiyat fuqarosini tarbiyalash muammolari orqali qaralgan, bu xol o‘yg‘onish davri falsafasida, pedagogikasida, psixologiyasida, Yangi davr, XVII XVIII asrlar Farb falsafasida ilmiy shakl kasb etgan. Yoshlar masalalarini

nazariy tadqiq etishning dolzarblashuvi, mustaqil yosh konsepsiyalarining yaratilishi XX asr boshiga tugʻri keldi hamda yoshlar sotsiologik nazariyalarida rivojlantirildi.

«Falsafa qomusiy lugʻat»ida «Yoshlar - yosh xususiyatlari, ijtimoiy xolatining oʻziga xosligi bilan ajralib turuvchi ijtimoiy-demografik guruh. Hozirgi paytda 14-16 yoshdan 25-30 yoshgacha boʻlgan kishilar yoshlarga mansub hisoblanadi. Yoshlarning aloxida ijtimoiy-ruhiy qiyofasi jamiyatning umumiy xolati, ijtimoiylashuv qonuniyatlari, ta'lim-tarbiya imkoniyatlari bilan belgilanadi»¹, deb qayd etilgan boʻlsa, «Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohi lugʻati»da: «Yoshlik chegarasi beqaror va ajratilishi qiyin lekin soha mutaxassislari koʻpincha uni 15-30 yil bilan oʻlchaydilar. Yoshlar ba'zi umumiy xususiyatlar bilan tavsiflanadi: ular, odatda, zamonaviy va bilimli, yangi kasblar va yangicha turmush tarziga intiluvchan, ijtimoiy jihatdan harakatchan qatlam»², deb tavsif berilgan.

Shunday qilib, yoshlar jamiyat normal ish olib borishi uchun zarur boʻlgan ijtimoiy guruh, -ekanligi shubha tugʻdirmaydi. Yoshlar muammolarini tadqiq etishning dolzarbligi tobora ortib borayotganligini, shuningdek, yoshlar oʻz tabiatiga koʻra jamiyatning oʻzini oʻzi tiklashini ta'minlovchi avlodlar vorisiyligi kodiga ega ekanligi bilan ham izoxlash mumkin. Yoshlarning hozir ham, kelajakda ham yashovchanligi jamiyatning rivojlanishi shartlaridan biridir. Jamiyatning rivojlanishi umuman yosh avlod pozitsiyasi qandayligi, uning qiyofasi, dunyoqarashi, salomatligi, sermaxsul hayotga moyilligiga bogʻliqdir.

Bu gaplarning bari zamonaviy fannint yoshlar ijtimoiylashuvi muammolariga qiziqishi ortib borayotganligi bilan izohlanadi.

Jamiyat rivojlanishida yoshlar ijtimoiylashuvinnng roli toʻgʻrisida koʻplab nuqtai nazarlar bildirilmoqda. Bu-mazkur hodisaning favqulodda murakkabligi, rang-barangligi, ziddiyatligi bilan izohlanadi va turli ma'no-mazmun jihatidan hamda turlicha yondashuvlar nuqtai nazaridan qaraladi. Shu ma'noda jamiyatning rivojlanish

¹ Falsafa: qomusiy lugʻat. –T.: ”Sharq”, 2004. –B.121.

² Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lugʻat.-T.:Gʻ. gʻulom nomidagi NMIU, 2010 y., -B.152.

omili bo'lgan yoshlarning ijtimoiylashuvi jarayoniga hozirgi ommaviy madaniyat ko'rsatadigan ta'sirni o'rganish dolzarb hisoblanadi.

Ijtimoiylashuv jarayoni gudaklikdayoq boshlanadi. Bolalik va o'smirlik davri bu jarayonda juda muhim rol o'ynaydi, chunki bu yoshda jamiyatdagi xulq-atvor normalari to'g'risidagi asosiy bilimlar egallanadi. Avvallari yetuklik yoshiga tayyorgarlik hozirgidek uzoq davom egmagandi: yigitcha 14-15 yoshida katta yoshlilar safidan o'rin olardi, qizlar esa 13 yoshida turmushga chiqishardi va mustaqil oila to'zishardi, hozir esa 25 yoshgacha o'qishni davom ettirishadi. Qadimgi ajdodlarimizga qiyoslaganda, hayotga tayyorgarlik ko'rish davri kamida 5 baravar uzaydi. Ijtimoiylashuv tugagani haqida gapirishning xojati yo'q chunki bu jarayon kishining butun hayoti davomida kechadi va keksalik chog'ida tugaydi, biroq bolalik va yoshlik ijtimoiylashuv uchun eng qulay davrdir.

Mohiyatan jamiyatning o'zini o'zi tiklashi jarayoni bo'lgan, ijtimoiy hayotga kirib kelayotgan avlodlarning ijtimoiylashuvi an'analar bilan chambarchas bog'liq. Madaniy jihatdan o'zini namoyon etish esa ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikni kuchaytiradigan jarayonlar bilan kechadigan hozirgi jamiyatni shaklan o'zgartirish; ijtimoiylashuvning asosiy institutlari - oila, maktab, armiya, mehnat jamoasining inqirozi; ijtimoiylashuvning asosiy modelini almashtirish; OAV rolining oshib borishi bilan bog'lqdir.

Bunday vaziyatda G'arbda va MDHning ayrim mamlakatlarida yoshlar orasida jinoyatning; giyohvandlikning, alkogolizmning va o'z joniga qasd etish (xudkushlik)ning yoshlar ishsizligining, axloqan buzqlikning, ma'naviyatdan yiroqlikning, mehnatga munosabat buzilishining kuchayib borishi bilan bog'liq ancha keskin muammolar yuzaga keldi¹. Masalan keyingi paytlarda OAVda, ayniqsa, o'smir yoshlarning suitsid xudkushlik qilib hayotni tark etayotganligi haqida habarlar ko'payib qoldi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki aksariyat bollarda yangi Internet psixologiyaning ta'siri kuchli bo'lmoqda, bunda «Yescape»-(qochish, tark etish)

¹ Shuhrat G'oyibnazarov. "Ommaviy madaniyat".-T.: "O'zbekiston" 2012 y.-B.107.

tugmachasini bosgan zaxoti narigi dunyoga ravona bulish mumkinligi taassurotining shakllantirilganligi ham sabab bo'lmoqda. Yoki o'z jinsini o'zgartirishni xohlayotgan bolalar va o'smirlar soni ortayotganligini. bu holni ularning ota-onalari hamda shifokorlar qo'llab-quvvatlayotganliklari, AQSH va Yevropa siyosatchilari hamda jamoat arboblari bu haqda qizg'in baxs va munozaralar olib borayotganligi haqida xabarlar berilmoqda.

Ommaviy madaniyat hozirgi yoshlarga qanday qaxramonlarni zo'rlab qabul qildirmoqchi bo'ladi?

Bugungi kunda ommaviy madaniyat o'z qaxramonlariga ega. Chindan ham, ommaviy madaniyat qaxramonlari qaxramonlik ko'rsatilmaydigan davrda, shuningdek qaxramonsiz muxitda yashab, faoliyat yuritishadi. Bular, odatda, axloqiy qoidalardan maxrum gangsterlar, politsiyachi detektivlar, josuslar, uddaburon qalloblar yoki «yovvoyi G'arb»ni o'zlashtirayotgai frontir kashshoflari yoxud komikslar va komik «sayoz operalar»ning fantastik personajlaridirlar. Reklamada ularniig nomlari tinmay takrorlanadi. Ular orasida Billi Kid ham, qudratli josus Jeyms Bond ham, romantik bosqinchilar Bonni va Klayd ham, har narsaga qodir Supermen, Spaydermen. Mushuk ayol va boshqalar ham bor.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, jahonda giyohvandlik kasaliga muhtalo bo'lgan 70 million kishi bor ekan. Shu munosabat bilan, ekspertlar narkotik modda- genotsid quroli, aslida allaqachon boshlanib ketgan turtinchi jahon urushining ta'sirchan quroli, degan fikrda yakdildirlar. Narkotiklar - iste'molchini bug'zidan olib uldiradigan ideal tovardir.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, giyovand moddalarni asosan 12-25 yoshlilar iste'mol qilishar ekan. Binobarin, bu-giyohvand moddalarni tarqatish uchun maxsus tanlangan auditoriya. Amaliy foyda olish maqsadida o'smirlarni uldirish, vaqti-soati kelib, jahon tarixidagi odamxurlik, quldorlik, inson sochidan tushak, terisidan abajur ishlab chiqaradigan konsentratsion lagerlar singari hodisalar orasidan «munosib» o'rin egallaydi. Bolalarni maqsadli tanlash benihoya axloqsizlikdir. Biroq marketing

strategiyasi nuqtai nazaridan, u benuqson, chunki nima qilarini bilmay yurgan o'smirlar son-sanoqsizdir. Axir, yoshlar yetarli bilimga va dunyo manzarasi haqida o'z tajribasiga asoslangan tasavvurga ega emasda.

Tadqiqotchilar giyohvandlik submadaniyatining yoshlar submadaniyati bilan qo'shib ketishiga alohida e'tibor qaratishadi. Yoshlar madaniyatini ommaviy madaniyat shakli sifatida ta'riflash yoshlarni kapitalistik mediabozor tomonidan nazorat qilinib, boshqariladigan ob'yekt sifatida, submadaniyatlarni esa yoshlar tomonidan emas, balki ular uchun konstruksiyalanadigan va yaratiladigan maxsulot sifatida ko'rsatdi. Bunday munosabat R. Xoggart va T. Adorning klassik asarlari bo'yicha ham ma'lum edi. Bugungi kunda giyohvand moddalarni targ'ib qilish, shu jumladan giyohvandlar submadaniyatini muayyan maqsadni ko'zlab shakllantirish mafkuraviy qo'poruvchilik va madaniy intervensiya shakli sifatida talqin qilinadi.

Bugungi kunda mavjud turli ijtimoiy tadqiqotlar giyohvand moddalar to'g'risidagi axborotni tarqatishda ommaviy axborot vositalari bosh rolni o'ynashini, ya'ni o'smirlarning 56,6 foizi giyohvand moddalar haqidati dastlabki ma'lumotlarni aynan OAVdan olishini, 31,1 foizi - OAVdan axborot oladigan tengdoshlaridan olishini ishonch bilan ta'kidlash imkonini beradi. 12 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan maqsadli auditoriyaga turli kanallardan kelib tushadigan axborot tadqiq etilganida qat'iy bir qonuniyat-barcha kommunikatsiya kanallari yoshlar auditoriyasiga mafkuraviy buyoq berilgan mavzularning bir xilda majmuasini taqdim etishi ma'lum bo'ladi¹. Bular:

Yoshlar modasi. Turli submadaniyatlar elementlari ham bo'lgan, uyatga qo'yuvchi, xijolatga soluvchi modani, umum qabul qilingan libosni buzuvchi «diskoteka uchun moda»ni, uniseks (jinslar o'rtasidagi farqni aks etirmaydigan uslubdagi kiyim)ni targ'ib qilish.

Deviantlik (to'g'ri yo'ldan ozish) va jinoyat. Taqiqni va umum qabul qilingan xulq-atvor me'yorlarini buzish (oshkora jinsiy aloqa, sukish va h.k).

¹ Shuhrat G'oyibnazarov. "Ommaviy madaniyat".-T.: "O'zbekiston" 2012 y.-B.108.

Mifologiya. Ekstremallik, g‘aybga oshno bo‘lganlik, g‘ayrihissiy xodisalar, shayton vasvasasi niqobi ostida giyohvand moddalarni «shirin targ‘ib qilish; astrologiya (munajjimlik, daxshat, o‘zga olamlardan kelganlar, NUJ).

Rak-yulduzlar va rok-musiqqa. Yulduzlarni reklama qilish, gonorarlar, muxlislar to‘g‘risida ma'lumot berish, muvaffaqiyatni, boylikni, ishqiy mojarolarni tasvirlash. Deviant xatti-harakatlar (jinoyatlar, giyohvandlik) haqida ular hayotining tarkibiy qismi sifatida habar tarqatish.

Ko‘ngilxushlik qilnadigan joylar. Klublar, rok-konsrtlar, diskotekalar, ommaviy bayramlar va boshqa xilma-xil «bazmi jamshidlar»¹.

Ushbu mavzular majmuasining mafkuraviy buyog‘i yaqqol ko‘rinib turibdi. Bu ijtimoiy normalarni buzish mafkurasi, jamiyatdan ajralib qolish mafkurasi, jinoyat mafkurasi. Bularniig bari shiddatli mafkuraviy bosimni vujudga keltiradiki, amalda unga chidab bo‘lmaydi. «Viz» va «Ular»dan iborat ziddiyat shu tariqa so‘n‘iy yaratiladi, bunda bolalar - «Iks (noma'lum) avlod», «Generation F.» otalar «Boshqa avlod»ga, ya'ni jamiyatga qarama-qarshi qo‘yiladi. Ijtimoiy noqulaylik va madad izlab topish istagi o‘smirlarni guruh bo‘lib birlashishga majbur etadi. Ko‘cha bazm yoki hovli bo‘yicha to‘dalar ularning asosiy tayanchi bo‘ladi. Ayni mahalda, hovli to‘dalari 15-17 yoshli ko‘plab o‘smirlarni giyohvand moddalarni ists'mol qilishga jalb etish omiligina bo‘lib qolmay, balki bu moddalarning iste'mol qilinishini ijtimoiy nazorat qilish vazifasini ham bajarishi sotsiologlarning hozirgi tadqiqotlarida ko‘rsatilgan. Bunda do‘stlar umuman giyohvand moddalarni iste'mol qilishdan asrashmaydi, balki bu moddalarning ayrim turlarini (geroin, kokain, sintetik narkotiklar («vint» va b.ni) iste'mol qilishdan, iste'mol qilishning muayyan usullaridan (venaga), muntazam iste'mol qilishdan (bir-bir iste'mol etishga qarshilik qilmasdan, muntazam iste'mol qilishga qarshilik qilishadi) ogohlantirishadi.

Bunday guruh, giyohvand moddalarni iste'mol qilishga tayyor, a'lo darajada o‘zaro moslashgan ijtimoiy-psixologik mexanizmdan iborat. Ozgina jamiyatga qarshi

¹ Shuhrat G‘oyibnazarov. «Ommaviy madaniyat».-T.: «O‘zbekiston» 2012 y.-B.110.

mifologik moy surtilsa, u kerakli yo‘nalishda ishlay boshlaydi. Ushbu mafkuraviy moy nimadan iborat? Ommaviy madaniyat mifologiyasi intilishlar cho‘qqisi sifatida: giyohvand moddalar bilan jozibali jinsiy munosabat; giyohvand moddalarni iste'mol qilish vositasida ma'naviy kamol topish; giyohvand moddalarni iste'mol qilish yordamida yuksak jismoniy yutuqlarga (kuchni ko‘paytirish, chidamlilikni oshirishga) yerishish; mashxur kishilarga taqlid qilish yo‘li bilan maqomni yuksaltirish va h.k.larni targ‘ib etadi.

Binobarin, «ommaviy madaniyat»ning turmushimizda ta'sirini ko‘rish uchun uzoqqa borish shart zmas. Yonimizga, o‘zimizga teranroq nazar solsak kifoya. «Alpomish»ni o‘qib savod chiqargan, pana-pastqamlarda «O‘tkan kunlar»ni mutolaa qilib katta bo‘lgan ota-bobolarimiz yoshligimizdanoq bizga «Uch og‘a-ini botirlar» jasoratidan, «To‘g‘ri va yari» qismatidan saboq berardi. Qadim alyorlardan, matallardan so‘ylardi. Xush, biz-chi? O‘g‘limiz kimning qo‘shig‘ini eshitib ulg‘aymoqda? Ekranda qo‘shiq qo‘ylayotgan yigitning qiliqlariga qarang, kimga taqlid qilyapti. «Og‘zidan chiqqan gapni qulog‘i eshitmayotgan», bachkanalikni kulgi deb o‘ylaydigan, saviyasizlikni ommaviylashtirayotgan kinoasarlarga qarang, yoningizda «shortik» va maykada yurishni kiborlik bilib, maxalla guzariga chiqayotgan «akaxon»ga razm soling. Yoshgina kelin-kuyovning ota-ona yonida quchishib turganiga e'tibor qiling. Axir quyun kabi ostonamizga kirib kelayotgan bu unsurlarga munosib javob berish uchun ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy aytganidek: «Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot yo nojot, yo halokat, yo soadat, yo falokat masalasidir» yo‘li ekaniga amin bo‘lmoq kerak emasmi? To‘g‘ri, ba'zan biz bolalarimizning tunda sang‘ib yurishi, qizimizning yarimyalang‘och kiyimda yonimizda o‘tirishi, nevaramizning zo‘ravonlikni, joxillikni targ‘ib qiladigan kompyuterdan ko‘z uzolmasligiga ko‘nikib qolganimiz tabiiy hol bo‘lib tuyulishi

mumkin. Lekin bunday «mayda muammo»lar bir kun kelib, katta tashvishlar, tahdidlar keltirib chiqarishi turgan gap¹.

Ma'lumki, Internet bugungi axborot makonining muhim va yetakchi bug'inlaridan biriga aylandi, hayotning ajralmas va zarur qismi bo'lib qoldi. Yer yuzida 1,5 milliard kishi Internetdan foydalanayotgan bo'lsa. O'zbekistonning qariyb 30 million aholisining 8 milliondan ortig'i undan foydalanayotganligi fikrimizning isbotidir. Prezident Islom Karimov o'zining «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» asarida «Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday sharoitda bolalarimizning ongini faqat o'rab-chirmab, uni o'qima, buni ko'rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o'rab olish, hech shubxasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga ham to'g'ri kelmaydi»¹ deb haqli e'tirof etgan holda, bunday deb ogoxlantiradilar ham: «Shuni unutmaslik kerakki, bugungi kunda insoniyat ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arziyas bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuchli, kuchga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin»²

Bu fikrning naqadar jiddiy asosga ega ekanligini Internetda mavjud salbiy va zararli saytlar, ya'ni o'z-o'zini o'ldirish - xudkushlikning oson yo'llarini targ'ib etuvchi saytlar qariyb 10.000ga yaqinlashganligi, shundan ziyod terrorchilik va ekstremistik saytlar, qariyb 5 ming erotik saytlar va boshqa tarbiyaga zid saytlar ko'payganligi ham tasdiqlaydi. Internetdan g'arazli siyosiy kuchlar o'zlarining manfur maqsadlari uchun ustalik bilan foydalanmoqdalar, zero, kimki axborotga ega bo'lsa, u dunyoga egalik qiladi, degan fikr barcha tomonidan e'tirof etilgan.

Tadqiqotchi B. Umarov o'zining «Globallashuv ziddiyatlari» deb nomlangan risolasida: «G'arb ommaviy madaniyati, ba'zan insonning tuban illatlarini junbushga

¹ Suyunov A. «Ommaviy madaniyat» ko'lankasi yoxud ma'naviy tahdidlar haqida.-T.: «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» 2010 y.,

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. -T.: «Ma'naviyat», 2008. -114- b.

² O'sha joyda. -115-b.

keltiradigan pop va rok-musiqaga mahliyo bo'lgan ayrim yosh yegit-qizlarimiz xalqimizning bebaho ma'naviy durdonalari, dunyoda qiyosi yo'q mumtoz qo'shiq san'atimiz, lapar va aytishuvlar, betakror musiqaviy oxanglarimizni tinglarmikan? Bugun yoshlarimiz G'arb estradasining «yulduz»larinigina emas, hatto «yulduzcha»larining ham ismi-sharifi, hayotiy kechinmalarini besh qo'lday biladi, ammo «Shashmaqom»dan birgina kuyning nomini so'rasangiz yoxud Abu Rayxon Beruniy, Axmad al-Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, al-Xorazmiy kabi ulug' ajdodlarimiz jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga qanday xissa qo'shganligini bilmoqchi bo'lsangiz yer chizib turaveradi. Afsuski, madaniy hayotdagi ayrim noqisliklar, xususan, teatrlarimizda qo'yilayotgan spektakllar saviyasining talab darajasida emasligi, milliy estradamizda g'arbona andozalarga taqlidning kuchayib borayotgani, gazeta dukanlarini ko'plab oldi-qochdi nashrlar bosib ketayotgani ham yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir etadi, deb bo'lmaydi»¹, deb xaqli ravishda e'tirof etadi.

Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari yordamida butun dunyoda birinchi navbatda eng faol rivojlanayotgan uchinchi deb atalmish va yosh mustaqil davlatlarda olib borilayotgan mafkuraviy urush harakatlari amaliy jihatdan qanday namoyon bo'lmoqda? Shunchaki ko'ngilxushlik va istirohat vositasi bo'lmay qolgan hamda allaqachon mafkuraviy urush quroliga aylangan hozirgi ommaviy madaniyatning yemiruvchi ta'siri nimalarga olib keladi?

Bugungi kunda madaniyat va sa'nat muassasalari orqali yoshlarga ta'lim tarbiya berish va boshqa ta'lim muassasalari hamkorligida targ'ibot tashviqot ishlarini olib borish yoshlarning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etishga alohida e'tibor berish, ular har xil oqimlarga kirib qolmaslikka davat etish muxim masaladir. Har bir ta'lim muassasasida giyohvandlikka qarshi ko'rashish xalqaro oyligini, "Biz giyohvandlikka qarshimiz" yoshlar festivalini o'tkazish, «Sog'lom turmush tarsi - yoshlarni uyg'un kamol toptirish garovi» maxsus ta'lim-ma'rifat saytini tashkil etish; ta'lim muassasalari uchun sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi ko'rgazmali vositalar

¹ Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari: iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatlari. –T.: "Ma'naviyat", 2006 y.,-B.91.

ishlab chiqarish va ular bilan ta'minlash; OITS infeksiyasining tarqalishiga kumaklashuvchi zararli ijtimoiy hodisalarni bartaraf etishga yo'naltirilgan roliklar va pilakatlarni milliy an'analar va qadriyatlarni hisobga olgan holda tayyorlash hamda ularni yoshlar o'rtasida tarqatish; yoshlar o'rtasida tamaki chekish, alkogolli ichimliklar iste'mol qilish, giyohvandlik, axloqsizlikning zararli oqibatlari to'g'risidagi eng yaxshi roliklar va plakatlar uchun tanlovlar tashkil etish; «Yoshlar sog'lom turmush tarzini tanlamoqda» shiori ostida shou-konsertlar tashkil etish; maxsus telesseriallar tayyorlash va tok-shou yozish, shuningdek, yuqori sifatli sipktakllar, pessalar va konsert dasturlari tayyorlash uchun 4 ta zamonaviy studiyaga ega bo'lgan MTRK media- markazini qo'rish va jixozlash; ijodkorlikning zamonaviy texnologiyalaridan foydalangan holda, o'zbek xalq ertaklari, dostonlari syujetlari asosida bolalar va yoshlar uchun 10 ta multiplikatsion va 4 ta badiiy film; o'zbek xalqining boy tarixi, milliy an'analari, Vatanimiz ardoqli kishilarining vatanparvarligi, hayoti va ijodi to'g'risida 6 ta milliy serial va 6 ta xujjatli film; bolalar va o'smirlar uchun kamida 3 ta milliy kompyuter o'yinlari, «ommaviy madaniyat»ning zararli oqibatlarini ochib beruvchi media-loyihalar va maqolalar; xalqimizning shonli o'tmishi va O'zbekistonning zamonaviy yutuqlariga bag'ishlangan sahna asarlaridan iborat bo'lgan qug'irchoq va yosh tomoshabinlar teatrlari repertuarlari; maktabgacha, kichik va katta maktab yoshidagi bolalar uchun quyidagilarni tayyorlash va namoyish etishni nazarda tutuvchi telekursatuvlarning maxsus ruknini tashkil etish: eng kichik bolalar uchun o'rgatish-kungilochar dasturlar; jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish mavzuida va sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo'yicha ko'rsatuvlar tayyorlash.

O'zbekistonning tarixiy merosini, hayvonot va o'simliklar dunyosini ochib beruvchi ko'rsatuvlar; o'quvchilarni fan va texnikaning so'nggi yuto'qlari bilan tanishtirish bo'yicha maxsus teleko'rsatuvlar; 2010-2015 yillarda quyidagilarni tayyorlash va nashr etish dasturini tasdiqlash: bolalar va o'smirlarni har tomonlama kamol toptirish va tarbiyalashga yo'naltirilgan jahon va o'zbek adabiyoti klassiklarining asarlarini, ularni login grafikasida kitob va elektron shakllarda nashr

etish; bolalar uchun o'zbek xalqining buyuk mutafakkirlari hayoti va faoliyati tug'risidagi rasmiy kitoblar, o'tgan ajdodlarimizning ma'naviy jasoratlari, qaxramonliklari to'g'risidagi bukletlar, risolalar, plakatlar va maqolalar; ota-onalar va murabbiylar uchun «Tarbiya» ilmiy-ommabop qomusi; yoshlar uchun O'zbekistonning barcha tarixiy yodgorliklari to'g'risidagi malumotlardan iborat bo'lgan kitob-kataloglar; O'zbekistonning jamoat tashkilotlari tomonidan talantli yoshlarni qo'llab-qo'vvatlash sohasida olib borilayotgan ishlar to'g'risida xikoya qiluvchi «Kelajak bugundan boshlanadi», «Kelajakka intilish» rasmiy kitob-albom. Quyidagilarni hisobga olgan holda milliy g'oya va mafkura, mamlakatimiz tarixi mavzulari buyicha veb-resurslarni yanada kengaytirish: «ZiyoNET» tarmog'i resurslarini axborotlar jihatidan rivojlantirish hamda respublika oliy o'quv yurtlari, litseylari, kollejlari va maktablarida «ZiyoNET» tarmog'ining imkoniyatlari hamda axborot resurslaridan keng foydalanishni ta'minlash chora-tadbirlarini amalga oshirish; mamlakatimizning yetakchi oliy ta'lim muassasalarida mintaqalar tarixi, arxeologiyasi va etnografiyasiga bag'ishlangan mavzuli saytlarni yaratish; axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, milliy g'oya, ilm-fan bo'yicha, shu jumladan ommaviy axborot vositalari rasmiy saytlari negizida elektron sovrinli viktorinalar, testlar tashkil etish; yosh mutaxassislarni ularda ishlash uchun keng jalb etishga yo'naltirilgan mintaqaviy yoshlar teleradiostudiyalari, matbuot markazlari va matbuot nashrlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish; aholi yosh doirasini, eng avvalo, bolalar va o'smirlarning madaniy-tarixiy merosdan fondalanish va ular bilan tanishish imkoniyatini kengaytirish, shu jumladan: unga muvofiq davlat muzeylariga kirish 18 yoshgacha bulgan bolalar uchun bepul bo'lgan tartibni joriy etish; O'zbekiston muzeylari to'g'risida telukursatuvlar, radioeshittirishlar va maqolalar turkumlarini tayyorlash; qat'iy e'tiqod va qarashlarga ega bo'lgan, ma'naviy tahdidlarga va chetdan ko'rsatiladigan ta'sirlarga qarshi turishga qodir bo'lgan yoshlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan, quyidagilarni nazarda tutuvchi chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish va amalga oshirish: milliy

mustaqillik tafakkurini, yuz berayotgan hodisalarga dahldorlik tuygʻusini shakllantirish, axloqiy madaniyatni va Internetdan foydalanish madaniyatini oshirish, past saviyali «ommaviy madaniyat»ning kirib kelishiga qarshi koʻrashish, yoshlar tomonidan tarixiy, madaniy qadriyatlarni, ajdodlarimizning ijodiy merosini oʻzlashtirish; yoshlarni zararli va madaniyatimizga, anʼanalarimizga, dunyoqarashimizga yot boʻlgan, Internet kanallari orqali kelayotgan materiallardan muxofaza qilish maqsadida Internet- klublar faoliyatiga talablarni oshirish: mahallalarda aholi hamda yoshlar bilan terrorizmga va diniy ekstremizmga qarshi koʻrashishga bagʻishlangan uchrashuvlar oʻtkazish; «Sogʻlom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish - barkamol avlod poydevoridir», «Yoshlarni gʻoyaviy taxdid va past saviyali «ommaviy madaniyat»ning zararli taʼsirlaridan himoya qilishning ilmiy-metodik masalalari tugʻrisida» davra suhbatlari, savol-javob kechalari, ilmiy anjumanlar oʻtkazish; «Mening mahallam tarixi» «Onalar koʻylaganda» yosh oilalar oʻrtasida xalq qoʻshiqlari, maqomlari, allalar va shu kabilarning eng yaxshi ijrochisi tanlovi, hunarmand qizlar oʻrtasida mintaqalarning xususiyatlarini hisobga olgan holda, eng yaxshi duppi tikish boʻyicha tanlov; kam taʼminlangan oilalardagi yosh avlodning xordigʻi va dam olishini taʼminlashni, shuningdek, xalqaro turizm va yoshlar tashkilotlari bilan hamkorlikni nazarda tutuvchi tadbirlar kompleksini ishlab chiqish va amalga oshirish tadbirlari rejalashtirilib, moliyalashtirildi.

Bunday ishlar yoshlarning boʻsh vaqtini mazmunli tashkil etishga juda katta xissa qoʻshadi. Mana shunga oʻxshagan ishlar koʻlamini yanada kengaytirish yoshlarimizning boʻsh vaqtini smarali ishlarga boshlasa yod gʻoyalardan himoyalagan boʻlamiz desam adashmayman.

2.2. Shaxs kamolotida bo'sh vaqt omili va madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari

Rivojlangan mamlakatlarning barchasida yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishda madaniy-ma'rifiy muassasalar katta rol o'ynaydi.

Bolalarning, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishda madaniy-ma'rifiy muassasalar ayniqsa, ularning uylari, madaniyat uylari, mahalla guzarlari, sport inshootlari, kutubxonalarning imkoniyati katta. O'quv yurtlari asosan, bolalarga bilim, ta'lim berish bilan shug'ullansa, madaniy-ma'rifiy muassasalar ularning bo'sh vaqtini maroqli o'tkazish bilan bir qatorda ularni ma'naviy, ahloqiy, ruhiy jihatlaridan oziqlantirib tarbiya beradi. Demak, bolalar, yoshlar ma'naviy barqarorligini yo'lga solish, ularning shaxs sifatida yetuklik kasb yetishi kelajakda ulkan vazifalarni amalga oshirishida madaniy-ma'rifiy muassasa rahbarlari, xodimlari va murabbiylarning roli beqiyosdir. Chunki yoshlarning bo'sh vaqtida ixtiyoriy tarzda, o'z qiziqishlari, iste'dodi va qobiliyatlariga yarasha ijtimoiy foydali faoliyat bilan shug'ullanishlarini tashkil etish va uni uyushtirish madaniy-ma'rifiy xodimlarning murabbiylik mahorati va bilimga bog'liqligidir.

Bu ishlarda murabbiylikdan yana bir qator malaka va ko'nikmalarni ham talab qiladi. Madaniy-ma'rifiy muassasalar siyosiy, tarbiyaviy va madaniy ommaviy ishlar o'tkaziladigan havfsizliklarni chiqarish va konsertlar, kinofil'mlar namoyish etiladigan maskanlar hisoblanadi. Umuman madaniy-ma'rifiy muassasalar muayyan hududdagi aholining boshini qovushtirishga jamiyat uchun zarur axborotni bevosita yetkazadigan, hatto keng ko'lamda axloqiy tarbiya olib borish mumkin bo'lmagan joydir. Mustaqil rivojlanish yo'lidagi izlanishlarga kirishgan vatanimizda milliy tiklanish va milliy ozodlik taraqqiy etish tarzi madaniy-ma'rifiy muassasalar zimmasiga katta vazifalarni yuklaydi.

Ijtimoiy tarbiya maskanlarining orasida doim dam olishni tashkil etishning alohida bir usuli sifatida paydo bo'lgan madaniyat uylarining o'rni bo'lakchadir.

Chin ma'noda jamiyat a'zolarining har tomonlama yetuklikka erishishini hohlovchi jamiyat jadal taraqqiy etadi.

Bu kabi jarayonlarni olg'a surish, fuqarolar saviyasini nisbatan jamiyat extiyojlarining kuchaytirish odamlarning muayyan maqsad asosida kuchaytirish yaqinlashtiruv, ularni madaniyat uylariga birlashtirish.

Jamiyat a'zolarining qiziqishlari va extiyojlarini ixtiyoriy asosda, bo'sh vaqt sifatida qanoatlantirish usuli bilan shaxsan tarbiyalash madaniy-ma'rifiy muassasalarning o'z oldiga qo'ygan vazifasidir.¹

Jamiyat o'z a'zolarining tarbiyalash uchun beriladigan barcha qadriyatlarni o'zi belgilaydi. Madaniy-ma'rifiy muassasalardagi pedagog jarayonlar odamlarni, ayniqsa yosh avlodni muayyan qadriyatlar bilan qurollantirib, jamiyat uchun belgilangan maqsadlarda tarbiyalash bilan bog'liq.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarning ijtimoiy, madaniy -tarbiyaviy muassasa sifatidagi roli va qadri behad kattadir.

Bugungi milliy respublikamizdagi rahbarlar yosh avlodni yangicha ijtimoiy ong bilan jamiyatning hozirgi talablariga mos o'zi yashayotgan jamiyat muhitining zaruriyatlariga javob beradigan, ya'ni vatanparvarlik ruhida himoyaga yetkazishni talab qiladi. Bu talabni amalga oshirishda viloyatlar markazlaridagi yagona teatr, muzey, kutubxonalar faoliyati kamlik qiladi.

Tumanlar markazlarida saqlanib qolgan madaniyat uylari, mahalla guzarlarida istirohat bog'larida ommaga ijtimoiy madaniy tadbirlar o'tkazish taqazo qiladilar. Respublikadagi ijtimoiy iqtisodiy islohatlar bo'lib turgan bir paytda, xalq uchun juda qimmat bo'lgan qadriyatlarni saqlab qolib, ularning o'zbek xalq mustaqilligiga xizmat qilishiga katta e'tibor berildi.

Yosh avlodga yangicha, bozor iqtisodiyoti asosidagi hayotga moslashuvga, ularning yangicha munosabatlariga o'rganishlari uchun xalqimizning o'tmishimizda

¹ I.A.Karimov "Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi". –Toshkent.: "O'zbekiston" 1997 yil.

mavjud bo'lgan tarixiy tajribalardan foydalanmasak imkoniyatlarni boy berish hisoblanadi.

Ijtimoiy madaniy ta'lim -tarbiya muassasalarining va yo'nalishlarini belgilaganda respublikamizdagi hozirgi taraqqiyot jarayoni va undan kelib chiqadigan ehtiyojlarni xususiyatlari hisobga olinmoqda.

Davlat siyosatidagi mulk turlarining erkin bo'lishi madaniyat uylarining xususiy turlarini paydo bo'lishi va rivojlanishiga imkoniyat bermoqda. Bunday muassasalardagi ish mazmuni komil insonlarni tarbiyalashga qaratilmog'i muhimdir. Bizning davrimizda milliy mafkurani barqaror etish eng asosiy maqsadga aylandi. Madaniy -ma'rifiy muassasalar mahalliy xalqning milliy dunyoqarashi va ruhiyatiga, mentalitetiga, madaniyatiga mos, mahalliy sharoitiga yaqinlashtirilgan holda ish yuritmoqda. Madaniy muassasaning xizmat faoliyatida bo'sh vaqtda ijtimoiy madaniy maqsadlarni amalga oshirish orqali foydalanish usullari, omillarni ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etadi.

Madaniyat dargohlardagi kompyuterlar yoshlar uchun faqat o'yin quroli bo'lib qolmasligi, o'yinlar yoshlarning ijodiy qudratini, qobiliyatlarini amalga oshirishga ta'sir ko'rsatishi zarur. Bu o'yinlarda yoshlar uchun fikrlash talab etilmaydi. Madaniy uylarida kasb-hunar to'garaklarini ochish turli qiziqarli kurslar tashkil qilish yaxshi natija beradi.

Havaskorlikni rivojlantirish ham madaniyat uylarini tashkiliy tarbiyaviy muassasa sifatida ahamiyatni oshiradi.

Madaniy - ma'rifiy xodimning malakaviy faoliyati o'z maqsadi mohiyati bilan tarbiyaviy ishidir. Uning asosiy vazifalari har tomonlama komil topgan shaxs shakllantirishdan iboratdir. Madaniy - ma'rifiy xodim mustaqil O'zbekistonning milliy siyosatining targ'ibotchisi mehnat va ahloqiy jihatdan kishilarni tarbiyalash, ommaning havaskorlik ijodiyotini rivojlantirish bilan ma'naviy barkamol inson tarbiyalash ishi bilan shug'ullanadi. Umummehnatkashlarning madaniy dam olish, o'z ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga, iste'dod va qobiliyatlarini o'stirishga

qaratilgan ijtimoiy foydali faoliyatni uyushtiruvchidir. Odamlar bilan ishlashga da'vat etilgan madaniy-ma'rifiy xodimning qiyofasini vatanparvarlik, insonparvarlik kabi yuksak ahloqiy sifatlarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Chunki bu muassasalardagi har bir ommaviy tadbir, yakkama-yakka tartibdagi suhbat, to'garak yoki havaskorlik uyushmasining mashg'uloti odamlarda o'z ona yurtiga, xalqiga chuqur mehr-oqibat, muhabbat tuyg'ularini shakllarini rivojlantirishga, madaniy-ma'rifiy xodimlarning o'zida vatanparvarlik tuyg'ularini qanchalik mustahkam o'rin olganligiga, o'tkaziladigan tadbirlar mazmunini yangi maqsadga yo'naltirish va ularni bir yo'lga sola bilishiga, tadbir qatnashuvchilarida ijtimoiy foydali fazilatlarining shakllanishiga yordam beradigan ish shakllari va usullarini tanlab, ulardan to'g'ri foydalana olishga bog'liq bo'ladi.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar xodimlari mehnatkashlari o'rtasida g'oyaviy, siyosiy, ommaviy, tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga, ishlab chiqarish ilg'orlashishining joylarda namunaviy hayot kechirayotgan aholilarning tajribalari ommalashtirishga ommaning madaniy dam olishi va xordiq chiqarishini uyushtirishga, ijtimoiy fikrni shakllantirishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazadilar.

Madaniy-ma'rifiy xodimlar xalqqa xizmat qiladi. Xalqning madaniyatini saqlaydi, targ'iboq qiladi, yangi madaniyat va istirohat, san'at asarlarining paydo bo'lishida ularning roli nihoyatda kattadir. Ular xalq havfsizligini havaskorlik san'atini o'rganuvchilar, rivojlantiruvchilar, ommalashtiruvchilar, uning ijodini taraqqiy ettiruvchilar hisoblanadi.

Jamiyat rivojlanishiga o'z xissasini qo'sha oladigan o'tmish avlodlarining ilmiy, jangavor, mehnat mahorati an'alarining, ilg'or tajribalarini va ilmlarini meros qilib olgan ma'naviy pok, ahloqiy va jismoniy barkamol, mehnatsevar, insonparvarlik g'oyalariga sodiq qobiliyatini, izlanuvchan, bunyodkor, ijodkor shaxsni shakllantirish, mustaqil vatanimizning buyuk kelajagini yaratuvchi komil insonni tarbiyalash dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bu tarbiyaning bo'sh yo'li maqsadi yo'lida komil ishonch bilan harakat qiladigan va qiyinchilikni yangi jamiyat quruvchilari tarbiyasi

yoʻlidir, bu vazifalarni xalq etish har bir kishi maʼnaviy hayotning barcha asosiy tamoyillarini rivojlantirish demakdir. Barkamol avlodni tarbiyalashda madaniy-maʼrifiy muassasalarning ahamiyati va oʻrni beqiyosdir. Bu muassasalar ommaning ijtimoiy-siyosiy, badiiy havaskorlik ijodiyotini har tomonlama rivojlantirish, ularning madaniy dam olishini tashkil etish omillardan biridir.

Madaniy-maʼrifiy muassasalardagi tarbiya usuli maktablarda, oliy oʻquv yurtlarida qabul qilingan tarbiya usulidan tubdan farq qiladi. Madaniy-maʼrifiy muassasalardagi milliy mafkuraviy tarbiya ishlari umumiy pedagogning taʼlim va tarbiya tamoyillariga asoslanadi.

Madaniy-maʼrifiy muassasalarda tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda bu dargohga keluvchilarning koʻngliligiga tayanadi. Chunki bu tashkilotlarga ijtimoiy ravishda keladilar. Maktablarga, oʻquv yurtlariga esa kishilar oʻz hayotini ehtiyojlarini qondirish tufayli bilim olish, kasb oʻrganish, biron bir mutaxassislikni egallash uchun keladilar. Natijada ularga deyarli bir necha xil yoʻldagi, malakadagi va qiziqishlari, maqsadlari bir xil boʻlgan kishilarga qatnashadi¹.

Madaniy-maʼrifiy muassasalarga aholining turli qatlami oʻzini maʼnaviy talab va istaklarini bayon etish, xavaskorlik ijodini rivojlantirish, madaniy dam olish, hordiq chiqarish, xalqaro axvolda mamlakatimizning ichki va tashqi siyosatida sodir boʻlayotgan voqealarni anglash haqida axborotlar olish, doʻstlar, oʻrtoqlari bilan suhbatlashish hayotiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish uchun keladilar. Shuning uchun ham bu muassasalarda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, tarbiyaviy jarayonni boshqarish, kishilarga tarbiyaviy taʼsir etish ishlari ancha murakkabdir.

Bu muassasalarda tarbiyaviy ishlarini uyushtirish uchun dastavval aholi turli qatlamlarini maʼnaviy talab va istaklarini madaniy saviyasini, kasbi va mutaxassisligini ommaviy axborot vositalari orqali va mustaqil oʻqish natijasida olgan yangi bilimlarini darajasini hisobga olish zarurdir.

¹ Suyunov A. "Ommaviy madaniyat" koʻlankasi yoxud maʼnaviy taxdidlar haqida.-T.: "Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati" 2010 y

Madaniy-ma'rifiy muassasalardagi tarbiyaviy ishlar uning qatnashuvchilari uchun muntazamlik harakteriga ega emas. Chunki, ularning qatnashuvchilari muntazam ravishda o'zgarib turadi. Bir tadbirda qatnashgan kishi, ikkinchi tadbirga qatnashmasligi mumkin. Shuning uchun ular kishilarga muntazam tarbiyaviy ta'sir etish imkoniyatidan mahrum.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarda tarbiyaviy ishlarni olib borishda tarbiyaviy ta'sir ko'rsatilishi lozim bo'lgan kishilarning ijodiy tashabbusiga, ularning faoliyatiga tashkilotchilarning faoliyatiga tayanadilar.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarning har bir tadbiri qatnashuvchilari ham tarbiyalovchisi ham tarbiyachi sifatida qatnashish imkoniyatiga egadir. O'quv yurtida esa tarbiyaviy ta'sir etish ob'yektni o'rganuvchilar, talabalar hisoblanib, ular faqatgina tarbiyalanuvchi sifatida namoyon bo'ladilar.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar mehnatkashlarining madaniy dam olishi, hordiq chiqarishi, bir-birlari bilan munosabatda bo'lishi, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishi, har kishini o'z qiziqqan sohasi bilan shug'ullanishi markazi hisoblangan madaniy-ma'rifiy muassasalar asosan quyidagi turlarga bo'linadi: kutubxonalar, madaniyat maskanlari, qiroatxonalar shular jumlasidan demakdir. Madaniy va ma'rifiy markazlariga respublika, shahar, tuman, viloyat, mahalla guzarlari, madaniyat uylari va madaniyat saroylari kiradi.

Muzeylar tarixiy, o'lkashunoslik, tabiat, san'at va turli ilm hamda kasb-kor, shon-shuhrat muzeylardan iboratdir.

Shahar, tuman va aholi zid joylashgan har bir dahada madaniyat va istirohat bog'lari mavjud. Teatr, konsert tashkilotlari, hayvonot va istirohat bog'lari, botanika bog'lari, sirkalar va boshqalar tomosha muassasalari hisoblanadi. Madaniy-ma'rifiy ishlarni oldiga qo'yilgan eng muhim vazifalardan biri aholi turar guzarlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda g'oyaviy, siyosiy, tarbiyaviy ishlarni uyushtirish ham muhim ahamiyatga ega.

Aholining turli guruhdagi, biz maktabdagi tarbiya yoshidagi o'quvchilar, yoshlar, o'smirlar, o'g'il va qizlar, erkaklar va ayollar, katta rol o'ynaydi, kampirlar, talabalar, yosh ishchilar, sanoat, transport aloqa vositalari va boshqa sohalarning ishchilari, chaqaloq, ho'jalik xodimlari, ziyolilar, uy bekalari va boshqalarni tushunamiz. Aholining bu guruhlari har biri o'ziga xos shakl va usullariga tadbirlar uyushtirishni talab etadi.

Turli millatlarning mehnatkashlari o'rtasida madaniy-ma'rifiy ishlarni uyushtirishda eng avvalo ularning tilini, o'ziga xos xususiyatlari, ruhiyatini, turmush tarzini, an'alarini, urf-odatlarini, marosimlarini hisobga olish juda ham muhimdir.

Madaniy muassasalar xodimlari aholining doimo o'sib kelayotgan ma'naviy talabi, ehtiyoji va qiziqishlarini har tomonlama qanday ekanligini qondirishga qaratilgan bo'sh vaqtini oqilona tashkil etishni nazarda tutgan holda g'oyaviy, siyosiy, madaniy, tarbiyaviy, ommaviy tadbirlarni uyushtiradi. Kishilarning o'zaro muloqatda dunyo qarashi turli tuman hayotiy masalalarni va siyosatdagi kundalik dolzarb muammolarni erkin muhokama qilish yo'li bilan madaniy-ma'rifiy muassasalar jamiyatchilik fikrini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Hozirgi vaqtda madaniy-ma'rifiy muassasalarning eng muhim vazifasi mehnatkashlarning madaniy dam olishini uyushtirishdir. Bu muassasalar ommaning ko'nglini hordiq chiqarishini uyushtirish maqsadida turmushimizda mavjud bo'lgan turli an'alar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, marosimlarning bo'sh vaqtimizda dam olish soatlarini mazmunli o'tkazishga madaniy hordiq chiqarishga imkoniyat yaratadi.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar oldiga qo'yilgan vazifalar va talablar tarixiy jarayonning rivojlanishi natijasida vujudga keldi va mustaqil mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti, xalq xo'jaligi, fan, texnika, madaniyat, ommaviy axborot vositalari, san'atning guruhlab rivojlanishi natijasida yanada takomillashib bormoqda.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarning vazifalari va ular oldiga qo'yilgan talablar bir-birini to'ldiradi, boyitadi, tarbiyaviy ishlarni ta'sirchanligini ta'minlaydi.

Madaniy-ma'rifatchilik kasbi inson faoliyatining barcha sohalari singari o'z xususiyatiga ega, ularning eng asosiy xususiyati madaniy-ma'rifiy ishlarni hayot bilan mustaqil vatanimizning o'ziga xos milliy siyostai bilan mustahkam bog'laganligidir.

Madaniy-ma'rifatchilik kasbining yana bir muhim xususiyati shundan iboratki, u muntazam izlanishli, ishga hamma vaqt ijodiy yondashadigan kishilarni talab etadi.

Vatanimiz mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tgandan beri sodir bo'layotgan o'zgarishlar natijasida kishilarning o'z-o'zini qayta anglashi, ota-bolalar merosiga alohida e'tibor bilan yondashishi, ahloqiy qiyofasi, fel'-atvori, o'zgarib ma'naviy va madaniy ehtiyojlarini qondan-qonga o'sib boryapti. O'zgargan sharoit shaxsga g'oyaviy ta'sir etishi, uning o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun yanada yangiroq, samaraliroq vositalar va usullarni qo'llashni talab etadi. Bu bir tomondan ommani, uning ehtiyojlarini yaxshi bilishni ikkinchi tomondan madaniy-ma'rifiy ishlarning shakli va usullarini tashkillashtirib, yangilab borishni taqazo etadi.

Madaniy-ma'rifiy ishlar pedagog faoliyatning boshqa turlaridan o'zining mazmunan murakkabligi, ko'p qirraligi, shaklan nihoyatda xilma-xilligi shu shakllarning o'ziga xos tarzda bir-biriga chatishib ketganligi bilan ham farq qiladi. Bundan tashqari madaniy-ma'rifiy muassasalarda ommaviy axborot va sanoat vositalari, texnika vositalari, ommaning havfsizligini rejali, ijodiy tashabbusini tashkil etishning o'ziga xos usullari ham qo'llaniladi.

Madaniy-ma'rifiy xodim barcha tarbiyaga pedagoglar qatori tarbiyaning hamma yo'nalishlari aqliy, mehnat, ahloqiy, iste'dod, estetik va jismoniy tarbiya masalalari bilan shug'ullanadi. Lekin u bunday ko'p qirrali tarbiyaviy ishlarni maktab va boshqa o'quv yurtlari o'quvchi, murabbiylar faoliyatlarida bo'lganidek, asosan bir xil yoshdagi bir xil tayyorgarlikdan o'quvchilar yoki talablar bilan emas, balki, yosh kasb bilim darajasi, qiziqishi va ehtiyojlari turlicha bo'lgan kishilar orasida olib boriladi.

O'quv yurtlarida tarbiya vazifalari asosan fanlarni o'qitish jarayonida amalga oshiriladi. Madaniy-ma'rifiy xodimlar esa milliy mafkura va milliy g'oya tarbiya

vazifalarini mehnatkashlarning bo'sh vaqtida dam olishni oqilona uyushtirish, ma'naviy extiyojlarini qondirish qobiliyatlarini va iste'dodlarini rivojlantirish maqsadida madaniy va ma'rifat maskanlarida tashkil etiladigan havaskorlik uchrashuvlarini ixtiyoriy mashg'ulotlari orqali va xilma-xil ommaviy tadbirlar o'tkazish yo'li bilan hal qilinadilar.

Madaniy-ma'rifiy xodim oldiga omma o'rtasida bilim taraqqatish, odamlarni ma'naviy extiyojlarini qondirish, qobiliyati va iste'dodlarini o'stirishda ularga yordam berish, mehnatsevarlarni moddiy hordiq chiqarishini uyushtirish kabi vazifalar qo'yilgan. Bilimlar targ'ibotchisi, ommaning mustaqil o'qib, bilim olishining tashkilotchisi hisoblangan madaniy-ma'rifiy xodim yuksak darajadagi dunyoqarash madaniyatini ya'ni ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va falsafiy bilimlari majmuini egallagan bo'lishi kerak.

Madaniy-ma'rifiy xodim uchun eng zarur bo'lgan bilim tarmoqlaridan biri bu pedagog bilimlar bo'lib, u olib boradigan ta'limiy hamda g'oyaviy tarbiyaviy ishlarning mazmuni va mohiyati chuqur tushunib olishda, odamlarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishga uning yo'llari va vositalarini, bo'sh vaqt sharoitida odamlar o'rtasida o'zaro muloqat o'tkazishning eng samarali usullarini o'zlashtirib olib, ulardan oqilona foydalanish yo'llarini o'rganishda yordam beradi.

Odamlarda xavas uyg'ota olish, ularning bilishga bo'lgan qiziqishlarini to'laroq qondira bilish san'atidir.

Bu san'at pedagog odobini egallab olishni ta'lim-tarbiya ishlarini uddalay boshlashni talab qiladi. Bunday bilim va ko'nikmalar asosida madaniy-ma'rifiy xodimning pedagogik mahorati shakllanadi, uning tarbiyachilik iste'dodi va qobiliyatlari o'stiriladi.

Xulosa

Shaxs kamolotida bo'sh vaqt omilini mazmunli tashkil etishda eng muhim vosita vazifasini bajaradigan ishlar bu madaniyat muassasalari va madaniy ma'rifiy tadbirlardir. Madaniy tadbirlar har xil alpozda o'tkazilishi va u tomoshabinlar va ishtirokchilarga bayram kayfiyatini ko'tarishda o'zgacha ruh bag'lashi mumkin. Madaniy-ma'rifiy tadbirlarning muhim xususiyatlaridan biri bo'lgan ommaviylik kichik va katta guruhlar faoliyatidagi o'ziga xos ijtimoiy-psixologik mexanizmlarni ishga solishni taqozo etadi. Bunday mexanizmlar orasida eng muximlaridan biri ijtimoiy-psixologik yaqinlik, hamfikrlik, hamdardlik, tuyg'udoshlik xissining paydo bo'lishidir.

Madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil qiluvchilar ana shunday ruhiy holat vujudga kelishidagi nozikliklarni to'la va chuqur anglashi, ulardan ustalik bilan foydalana bilishi kerak. Bunday mahoratga ega bo'lmay turib madaniy-ma'rifiy tadbirlarning yuqori samaradorligiga erishib bo'lmaydi.

Ijtimoiy-psixologik hamdardlik xissining vujudga kelish mexanizmda quyidagi ikki holat, ayniqsa, muxim o'rin tutadi:

a) yuqori emotsional ta'sir kuchiga ega bo'lgan ruhiy holatni odamlarning bevosita muloqoti jarayonida bir-biriga o'zatilishi;

b) muloqotga kirishayotgan odamlar miqdori va hisiy ta'sir darajasiga bog'liq bo'lgan va o'zatilayotgan emotsiyaning ko'p marta kuchayishi. Ijtimoiy-psixologik holatlarning odamlarning biridan ikkinchisiga o'tishiga bag'ishlangan tadqiqotlarda ko'pincha asosiy e'tibor ikkinchi holatga, ya'ni emotsiyalarning bir necha baravar kuchayishiga qaratiladi. Shaxslararo emotsional muloqotning ana shu mexanizmdagi zaruriy negiz ekani esa ko'pincha e'tibordan chetda qoladi.

O'quvchi va talaba yoshlar o'rtasida o'tkazilayotgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarda shaxslararo xissiy muloqot yana ham muhim ahamiyatga ega, chunki bu yoshlar bir-birini taniydi va ular o'rtasida muayyan xissiy munosabatlar mavjud. Shuning uchun ularda paydo bo'layotgan hissiyotlarning bir-biriga o'tishi oson va tez

kechadi. Bundan tashqari, ana shu o'tish jarayonida xissiyotlarning kuchayishi bir-biri bilan tanish bo'lmagan tomoshabinlar orasidagiga nisbatan yuqoriroq darajada yuz beradi.

Madaniy-ma'rifiy tadbirlar yoshlarni ma'anviy axloqiy, milliy-ma'naviy ruhda tarbiyalashda katta o'rin tutadi. Madaniy-ma'rifiy tadbirni o'ziga xos murvatlarini hisobga olib o'tkazish orqali yoshlarni milliy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ular ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish borasidagi faoliyatimizda yuqori samaradorlikka erishishimiz mumkin.

Madaniyat muassasalari orqali yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, shaxs kamolotga erishishi, umuman yoshlar tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadigan tadbirlar va bayramlarni uyishtirilsa yana ham maqsadga muvofiq ish bo'lardi.

Bugungi kunda madaniyat va sa'nat muassasalari orqali yoshlarga ta'lim tarbiya berish va boshqa ta'lim muassasalari hamkorligida targ'ibot tashviqot ishlarini olib borish yoshlarning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etishga alohida e'tibor berish, ular har xil oqimlarga kirib qolmaslikka davat etish muxim masaladir.

Yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishda madaniy-ma'rifiy muassasalarning ahamiyati va o'rni beqiyosdir. Bu muassasalar ommaning ijtimoiy-siyosiy, badiiy havaskorlik ijodiyotini har tomonlama rivojlantirish, ularning madaniy dam olishini tashkil etish omillardan biridir.

Madaniy-ma'rifiy muassasalardagi tarbiya usuli maktablarda, oliy o'quv yurtlarida qabul qilingan tarbiya usulidan tubdan farq qiladi. Madaniy-ma'rifiy muassasalardagi milliy mafkuraviy tarbiya ishlari umumiy pedagogning ta'lim va tarbiya tamoyillariga asoslanadi.

Yosh avlodga yangicha, bozor iqtisodiyoti asosidagi hayotga moslashuvga, ularning yangicha munosabatlariga o'rganishlari uchun xalqimizning o'tmishimizda mavjud bo'lgan tarixiy tajribalardan foydalanmasak imkoniyatlarni boy berish hisoblanadi.

«Yoshlarni g‘oyaviy taxdid va past saviyali «ommaviy madaniyat»ning zararli ta'sirlaridan himoya qilishning ilmiy-metodik masalalari tug‘risida» davra suhbatlari, savol-javob kechalari, ilmiy anjumanlar o‘tkazish;

O‘zbekistonning barcha tarixiy yodgorliklari to‘g‘risidagi malumotlardan iborat bo‘lgan kitob-kataloglar; O‘zbekistonning jamoat tashkilotlari tomonidan talantli yoshlarni qo‘llab-qo‘vvatlash sohasida olib borilayotgan ishlar to‘g‘risida hikoya qiluvchi «Kelajak bugundan boshlanadi», «Kelajakka intilish» rasmlı kitob-albom. Quyidagılarnı hisobga olgan holda milliy g‘oya va mafkura, mamlakatimiz tarixi mavzulari buyicha veb-resurslarnı yanada kengaytirish shaxs kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat-T.: "O'zbekiston" 1995-yil. 66-67, betlar.
2. Karimov I.A.Ozbekiston XXI asr bo'sag'asida havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va tarqqiyot kafolatlari.-T.: O'zbekiston, 1997. 112-130, betlar.
- 3.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning. Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlagan nutqi. 2002 yil 21 fevral
5. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l - demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T. 11. - T.: O'zbekiston, 2003. 320 –B.
6. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq.T.12. -T.: O'zbekiston, 2004 400 -B.
7. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. T. 13. - T.: O'zbekiston, 2005. 448 – B.
8. Alisher Navoiy Maxbub ul-qulib. –T.: 1939. – B.107.
9. Abay. Tanlangan asarlar. -T.: 1961. 34-57. B.
10. Abulqosim Pirdavsiy. Shoxnoma. Birinchi kitob.-T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1975. –B.56.
11. Abulqosim Pirdavsiy. Shoxnoma uchinchi kitob.-T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1976. –B.125.
12. Abu Ali Ibin Sino. Hikmatlar. –T.: "O'zbekiston"1980. –B.43-168.
13. Aliqulov. X. Omonova G.Jomiy va Dovoniy ta'lim-tarbiya haqida.-T.: "o'qituvchi" nashriyoti, 1981. -207.B.
14. Abu Rayxon Beruniy "Ruhiyat va tarbiya haqida". -T: 1992. -345.B
15. Behbudiy.M Tanlangan asarlar.- T.:“Fan” nashriyoti, 1958. – B.124.
16. Fozilov J.va boshqalar «O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish» -T.: 2000. 246.-B

17. Mahmud Qashg'ariy. Devoni lug'ati turk.-T.: "Fan" nashriyoti, 1982. – B.46.
18. Musurmonova. O.«Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi» -T.: 1996. – B.23.
19. O'zbekiston Respublikasi madaniyat va sport ishlari vazirligi "Madaniyat sohasiga oid me'yoriy hujjatlar to'plami" –T.: "MEDIANASHR" 2010-yil. 108-111, betlar.
20. U.Qoraboev. "O'zbekiston bayramlari" –T.: "O'qituvchi" 1991-y., 23-B.
21. U.Qoraboev "Madaniyat masalalari", -T.: "O'zbekiston milliy ensklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2010-y.,. 60- B.
22. A.Begmatov, R.Rustamova "Milliy g'oya targ'iboti va madaniy-marifiy tadbirlar" –T.: "Ma'naviyat" 2007 y., -B.46.
23. U.Qoraboev "O'bek xalqi bayramlari" -T.: "Sharq" 2002 y. 11-B.
24. Falsafa: qomusiy lug'at. –T.: "Sharq", 2004.121–B.
25. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'at.-T.:G'.g'ulom nomidagi NMIU, 2010 y., -B.152.
26. Shuhrat G'oyibnazarov. "Ommaviy madaniyat".-T.: "O'zbekiston" 2012 y.-B.107.
27. Suyunov A. "Ommaviy madaniyat" ko'lankasi yoxud ma'naviy taxdidlar haqida.-T.: "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" 2010 y.,
28. Umarov B. Globallashuv ziddiyatlari:iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatlari. –T.: "Ma'naviyat", 2006 y.,-B.91.
29. www.ziyonet.uz
30. .www.google.uz
31. www.ziyonet.uz
32. www.fikr.uz
33. www.ziyoistaganqalblar.uz

Ilovalar

1-ilova.

D.M. Genkin bayram va bayramona kayfiyatni tahlil qilib, quyidagi asosiy komponentlar va birlamchi ijtimoiy ehtiyojlarni ajratib ko'rsatadi:

1. *Birikishga bo'lgan ehtiyoj, voqealarga bo'lgan shaxsiy chidamlilikni toblab, unga bo'lgan munosabatini izhor etishda bir maqsad sari intilish;*
2. *Keng ijtimoiy muloqotga intilish ehtiyoji;*
3. *Jamoa emotsional hayotidagi, jamoa xursandchiligi, tantanasi, intilishlarini namoyon etishga intilish ehtiyoji.*

«Sus xotin» zardushtiylik davridan buyon mavjud boʻlgan marosimlardan biri boʻlib, u

Marosimni tashkil etish.

Marosimni oʻtkazish.

Is chiqarish tartibida oʻtkazilgan.